



# MUHAMMAD MUSTAFO VASFI



HAKIM SHOSHIY

## Bismillahir rohmanir rohiym

### Muqaddima

Alloh taologa o‘zi rozi bo‘lgunicha hamdu sano, payg‘ambari Muhammad sollallohu alayhi vasallamga salovat va salomlar bo‘lsin. Ammo ba‘d:

Alloh taolo bizga nabiyyimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamni haq din ila, olamlarga rahmat o‘laroq jonatar ekan, bizni u zotga itoat qilishimizni, u zotni yaxshi ko‘rish va haq-huquqlarini o‘z o‘rniga qo‘yishimizni buyurdi. Alloh taolo jannat uchun eshiklar qilgan. Bu eshiklar faqatgina u zotning yo‘lidan yurganlargagina ochiladi<sup>1</sup>. Bizlarga ham ana shu eshiklar ochilishini istasak, u zotning yo‘llarini, siyratlarini o‘rganib, u zotga ergashmog‘imiz kerak.

Qo‘lingizdagi ushbu risola Doktor Xolid Ibn Mahmud Al-Juhaniyning “Ad-Durrul mujtaba fiy vasfil-mustofa” asariga tayanib yozildi.

Istardimki, Nabiyy sollallohu alayhi vasallamning quyida keladigan go‘zal sifatleri har bir musulmon oilasida takror takror o‘qilsin. Toki zehnlarimizda u zotning sahih ko‘rinishlari va xulqlari gavdalansin. Quyidagi bitiklar oz bo‘lsa ham u zotni yaqinroq tanishga hissa qo‘shadi degan umiddaman.

<sup>1</sup> Ibnul Qoyyim, “Zadul ma‘ad” 1/36-37.



Ushbu risola uch qismdan iboratdir:

- 1) Nabiyy sollallohu alayhi vasallamning tashqi ko‘rinishlari**
- 2) U zot sollallohu alayhi vasallamning xulqlari**
- 3) U zot sollallohu alayhi vasallamning xususiyatlari**

Risolada kelgan har bir ma‘lumot manbasi pastda havolada keltirildi. Duolarning arabcha matni bilan o‘zbekcha harflarda o‘qilishi va ma‘nolari keltirildi. Arabchaga xos bo‘lgan ba‘zi tovushlarni o‘zbekcha harfda to‘liq ifoda qilib bo‘lmagani uchun, arabcha o‘qishni bilmaydiganlar biladiganlarga o‘qitib, keyin duolarni yodlaganlari afzal.

Alloh taolodan ushbu qilingan ojizona harakatni qabul qilishini, xato-kamchiliklarimni mag‘firat qilishini, shuningdek, ota-onamni va ustozlarimni ham Firdavs jannatlari bilan siylashini, hamda, shu risolani o‘qib foyda olgan va uni boshqalarga ham ulashganlarni mag‘firat qilib, darajalarini ko‘tarishini so‘rayman. Amiyun.

**Hakim Shoshiy**

**03.01.2023 16:16**



## Birinchi qism

### Nabiy sollallohu alayhi vasallamning tashqi ko‘rinishlari

#### Bo‘ylari

Rosululloh sollallohu alayhi vasallam o‘rta bo‘yli edilar.<sup>1</sup>  
O‘ta uzun ham emas, past ham emasdilar.<sup>2</sup>

#### Ranglari

Rosululloh sollallohu alayhi vasallam qizil aralash oq edilar.<sup>3</sup> Albinos kasalidek oq ham emas, qoracha ham emasdilar.<sup>4</sup>

Sajda qilgan<sup>5</sup> va duo qilgan<sup>6</sup> paytlari qo‘ltiqlarining oqligi ko‘rinardi. Ya‘ni qo‘ltiqlari ostida tuk bo‘lmasdi va huddi tanalarining rangidek bo‘lardi. Yo u zot sollallohu alayhi vasallam shunday yaratilganlar, yoki doimo ularni tozalab yurishni odat qilganlar.

#### A‘zolari

Rosululloh sollallohu alayhi vasallamning bo‘g‘imlari yirik edi.<sup>7</sup> Ya‘ni suyaklarining bir-biriga ulangan yerlari yirik-baquvvat edi. Yelkalari, tizzalari, sonlari shular jumlasidan.

<sup>1</sup> Buxoriy, 3558. Muslim, 2336.

<sup>2</sup> Buxoriy, 3548. Muslim, 2347.

<sup>3</sup> Buxoriy, 3547. Muslim, 2330.

<sup>4</sup> Buxoriy, 3548. Muslim, 2347.

<sup>5</sup> Buxoriy, 3564. Muslim, 495.

<sup>6</sup> Buxoriy, 3565. Muslim, 895.

<sup>7</sup> Termiziy, 3637. Ahmad, 684.



## Boshlari

Rosululloh sollallohu alayhi vasallamning boshlari katta edi.<sup>1</sup> Ya'ni arablar maqtaydigan darajada kattalikda edi. Shunday bosh egalari ulug'lanardi. Shuningdek, bu narsa o'sha inson boshliqlikni puxta bajarishiga dalolat qilardi.<sup>2</sup>

## Sochlari

Rosululloh sollallohu alayhi vasallamning sochlari go'zal<sup>3</sup>, tim qora edi<sup>4</sup>. Sochlari quloqlarining yarmigacha tushib turardi<sup>5</sup>. Ba'zida esa, quloqlarining yumshog'igacha tushardi<sup>6</sup>. Ba'zan esa, quloqdan pastda yelkadan tepada turardi.<sup>7</sup>

U zotning sochlari o'ta jingalak ham emas, o'ta tekis ham emasdi.<sup>8</sup> Sochlarini yoyib yurardilar. Keyinchalik farq ochdilar.<sup>9</sup>

U zot sollallohu alayhi vasallamning to'rtta kokillari bo'lardi.<sup>10</sup>

Ko'kraklaridan kindiklari uzra nozik tuk bo'lardi.<sup>11</sup>

U zot sollallohu alayhi vasallam qo'llaridan kelganicha har ishni o'ng tomondan boshlashni yaxshi ko'rardilar.<sup>12</sup>

<sup>1</sup> Termiziy, 3637. Ahmad, 684.

<sup>2</sup> "Mirqotul mafatih sharhu mishkatul masobih", 9/3700.

<sup>3</sup> Bazzor. "Musnad", 7789.

<sup>4</sup> Bayhaqiy. "Daloil", 1/274.

<sup>5</sup> Muslim, 2338.

<sup>6</sup> Buxoriy, 3551. Muslim, 2337.

<sup>7</sup> Termiziy, 1755.

<sup>8</sup> Buxoriy, 3548. Muslim, 2347.

<sup>9</sup> Buxoriy, 3558. Muslim, 2336.

<sup>10</sup> Abu Dovud, 4191. Termiziy, 1781. Ibn Moja, 3631. Ahmad, 26890.

<sup>11</sup> Termiziy, 3637. Ahmad, 684.

<sup>12</sup> Buxoriy, 426. Muslim, 268.



Tahorat olishda, sochlarini tarashda, oyoq kiyim kiyishda o'ng tomondan boshlardilar.

### Oqargan sochlari

U zot sollallohu alayhi vasallamning oqargan tuklari kam edi.<sup>1</sup> Faqatgina lablari ostida, hamda ko'z bilan quloq o'rtasida oq sochlar bor edi. Boshlarida ham tarqoq yerlarda bir nechta bor edi.<sup>2</sup>

Sochlarini moylasalar oq sochlari ko'rinmasdi, to'zigan payti ko'rinib qolardi.<sup>3</sup>

U zot vafot etganlarida boshlari va soqollarida jami yigirmata oq soch bor edi.<sup>4</sup>

U zot sollallohu alayhi vasallam sochlarini (hinaga) bo'yar edilar.<sup>5</sup>

### Yuzlari

Rosululloh sollallohu alayhi vasallam eng go'zal yuzli va eng go'zal xulqli inson edilar.<sup>6</sup> Yuzlari oy kabi<sup>7</sup>, chiroyli hisoblanadigan oq yuz edilar<sup>8</sup>. Ko'rkam yuzli.<sup>9</sup> Xursand bo'lsalar yuzlari oy parchasidek yorishib ketardi.<sup>10</sup>

<sup>1</sup> Buxoriy, 3550. Muslim, 2341.

<sup>2</sup> Muslim, 2341.

<sup>3</sup> Muslim, 2344.

<sup>4</sup> Buxoriy, 3548. Muslim, 2347.

<sup>5</sup> Termiziy, "Shamoil", 49.

<sup>6</sup> Buxoriy, 3549. Muslim, 2337.

<sup>7</sup> Buxoriy, 3552.

<sup>8</sup> Muslim, 2340.

<sup>9</sup> Ahmad, 3410.

<sup>10</sup> Buxoriy, 3556. Muslim, 2769.





Peshonalari keng<sup>1</sup>, yanoqlari tekis, boʻrtib chiqmagan edi<sup>2</sup>.

### Koʻzlari

Koʻz tirqishlari uzun<sup>3</sup>, koʻzlari ham katta edi. Koʻzlarida biroz qizillik bor<sup>4</sup>. Qorachiqlari qora<sup>5</sup>, kipriklari uzun<sup>6</sup>, koʻzlarining cheti qora edi<sup>7</sup>. Ikki koʻzlari uxlar, qalblari esa uxlamas edi<sup>8</sup>.

### Ogʻizlari

U zot sollallohu alayhi vasallamning ogʻizlari keng edi<sup>9</sup>. Arablar ogʻzi keng boʻlishni maqtar, ogʻzi kichkina boʻlishni yomonlashardi. Old tishlari ham chiroyli edi<sup>10</sup>.

### Soqollari

Rosululloh sollallohu alayhi vasallamning soqollari koʻp edi.<sup>11</sup> Soqollari koʻpligidan ikki yelkalari oʻrtasini toʻldirib turardi. Hatto boʻyinlarini ham toʻldiray derdi.<sup>12</sup> Soqollarining rangi qora<sup>13</sup>, bir necha oq tolalar bor edi<sup>14</sup>. Pastki lablari bilan iyaklari orasida bir necha oq tolalar bor edi<sup>15</sup>.

<sup>1</sup> Buxoriy. "Adabul mufrad", 1155.

<sup>2</sup> Bayhaqiy. "Daloi", 1\274.

<sup>3</sup> Muslim, 2339.

<sup>4</sup> Ahmad, 796.

<sup>5</sup> Bayhaqiy. "Daloi", 1\212-213.

<sup>6</sup> Termiziy, 3638. Ahmad, 796.

<sup>7</sup> Ahmad, 3410. Termiziy, "Shamoil", 412.

<sup>8</sup> Buxoriy, 3569. Muslim, 763.

<sup>9</sup> Muslim, 2339.

<sup>10</sup> Buxoriy. "Adabul mufrad", 1155.

<sup>11</sup> Muslim, 2344.

<sup>12</sup> Ahmad, 3410. Termiziy, "Shamoil", 412.

<sup>13</sup> Bazzor. "Musnad", 7789. Bayhaqiy. "Daloi", 1\217.

<sup>14</sup> Muslim, 2341.

<sup>15</sup> Buxoriy, 3545. Muslim, 104.



U zot sollallohu alayhi vasallam soqollarini vars<sup>1</sup> va za‘faron bilan boyab xushbo‘y qilardilar<sup>2</sup>.

### Yelkalari

Rosululloh sollallohu alayhi vasallamning ikki yelkalari orasi uzoq edi<sup>3</sup>.

### Bilaklari

Rosululloh sollallohu alayhi vasallamning bilaklari uzun edi<sup>4</sup>.

### Ikki qo‘llari

Rosululloh sollallohu alayhi vasallamning qo‘llari qordanda sovuq, mushki anbardanda hidi yaxshi edi<sup>5</sup>. Ikki kaftlari yo‘g‘on edi<sup>6</sup>. U zotning kaftlari ipak va kimxobdanda yumshoq edi<sup>7</sup>.

### Boldirlari

Rosululloh sollallohu alayhi vasallamning boldirlari yaltirab<sup>8</sup> oppoq bo‘lib turar edi<sup>9</sup>.

### Qadamlari<sup>10</sup>

Rosululloh sollallohu alayhi vasallamning qadamlari yo‘g‘on<sup>11</sup> va katta<sup>12</sup> edi. Oyoqlarining to‘lig‘icha yerni

<sup>1</sup> Vars - bot. sariq daraxt – Memeceylon tinctirium

<sup>2</sup> Abu Dovud, 4210. Nasaiy, 5244. Ibn Moja, 3626. Ahmad, 5950.

<sup>3</sup> Buxoriy, 3558. Muslim, 2336.

<sup>4</sup> Ahmad, 8334.

<sup>5</sup> Buxoriy, 3553.

<sup>6</sup> Termiziy, 3237. Ahmad, 684.

<sup>7</sup> Buxoriy, 3561. Muslim, 2330.

<sup>8</sup> Buxoriy, 3566.

<sup>9</sup> Muslim, 503.

<sup>10</sup> Qadam - oyoqning to‘piqdan pastki qismi.

<sup>11</sup> Termiziy, 3637. Ahmad, 684.

<sup>12</sup> Buxoriy, 5908.





bosardilar, baʻzi joyi tegmay qolmasdi<sup>1</sup>. Qadamlari orqasining goʻshti kam edi<sup>2</sup>. Ikki qadamlarining yaltirashi koʻrinib turardi<sup>3</sup>.

### Yurishlari

Rosululloh sollallohu alayhi vasallam yursalar, tepalikdan tushayotgan kishidek oldinga biroz ogʻgan holda yurardilar<sup>4</sup>. Yursalar quvvat bilan yurardilar, boʻshashib yurmasdilar<sup>5</sup>. Rosululloh sollallohu alayhi vasallamdan tezroq yuradigan odam yoʻq edi. Huddi yer u zotga qarab oʻralayotgandek boʻlardi.

### Bellari

Rosululloh sollallohu alayhi vasallamning bellari kumush parchasidek oppoq edi<sup>6</sup>.

### Yuzlanishlari

Rosululloh sollallohu alayhi vasallam biror kishiga yuzlansalar, toʻliq badanlari bilan yuzlanar edilar<sup>7</sup>. Yani, boʻyinlarini burib emas, toʻliq burilib qarardilar.

### Hidlari

U zot sollallohu alayhi vasallamning hidlari mushkdan ham, anbardan ham yaxshiroq edi<sup>8</sup>. Bu hid u zotning sharafli jasadlaridan taralardi, atir surganlari tufayli emas.

<sup>1</sup> Buxoriy. "Adabul mufrad", 1155.

<sup>2</sup> Muslim, 2339.

<sup>3</sup> Buxoriy, 3566.

<sup>4</sup> Termiziy, 3637.

<sup>5</sup> Ahmad, 3033.

<sup>6</sup> Nasa'iy, 2864. Ahmad, 15512.

<sup>7</sup> Buxoriy. "Adabul mufrad", 1315. Ahmad, 684.

<sup>8</sup> Buxoriy, 3561. Muslim, 2330.



Terlari bo‘lsa huddi, mavrarid kabi edi<sup>1</sup>.

### Payg‘ambarlik muhri

Rosululloh sollallohu alayhi vasallamning ikki yelkalari orasida kabutar tuxumidek keladigan<sup>2</sup> tuklardan iborat<sup>3</sup> payg‘ambarlik muhri bor edi.

---

<sup>1</sup> Muslim, 2330.

<sup>2</sup> Buxoriy, 190. Muslim, 2346.

<sup>3</sup> Ahmad, 20732.



## Ikkinchi qism

### Nabiy sollallohu alayhi vasallamning xulqlari

#### Hayolari

Rosululloh sollallohu alayhi vasallamning hayolari pardadagi <sup>1</sup> bokira qizdanda kuchli edi. Biror narsani yoqtirmasalar yuzlaridan bilinar edi<sup>2</sup>.

#### Soʻzlashlari

Rosululloh sollallohu alayhi vasallam gapirsalar, agar biror kishi soʻzlarini sanayman desa, sanay olardi<sup>3</sup>. Tez gapirib tashlamas edilar<sup>4</sup>.

Odamlar yaxshilab anglab olishlari uchun, baʼzida soʻzlarini uch marta takrorlardilar<sup>5</sup>.

#### Sheʼr aytishlari

Rosululloh sollallohu alayhi vasallam Ibn Ravohaning sheʼrini aytardilar: **“Mol dunyo bermaganing, senga xabar keltirar”<sup>6</sup>**.

Janglardan birida Rosululloh sollallohu alayhi vasallamning barmoqlari qonaydi. Shunda quyidagi sheʼrni aytadilar:

<sup>1</sup> Ilgari voyaga yetgan qizlar uchun alohida xona qilib berishga sharoit boʻlmay, uying bir chetiga parda yoki shunga oʻxshash narsa bilan ajratib berilgan.

<sup>2</sup> Buxoriy, 3562. Muslim, 2320.

<sup>3</sup> Buxoriy, 3567. Muslim, 2493.

<sup>4</sup> Buxoriy, 3568. Muslim, 2493.

<sup>5</sup> Buxoriy, 95.

<sup>6</sup> Termiziy, 2848. Nasaiy, 10769. Ahmad, 25071.



**“Sen bor yo‘g‘i qonagan, bir barmoq bo‘lding.  
Qodir Alloh yo‘lida, ayt nima ko‘rding?”<sup>1</sup>**

U zot sollallohu alayhi vasallam: “Shoirilar aytgan eng to‘g‘ri gap, Labidning gapidir: **“Ogoh bo‘lingkim, Allohdan o‘zga har narsa botildir”**, derdilar”<sup>2</sup>.

U zotning sahobalari ham johiliyat ishlarini eslagan holda she‘rlar aytishardi. U zot bo‘lsa sukut qilar, ba‘zida ularga qo‘shilib tabassum qilib qo‘yardilar<sup>3</sup>.

Sharid Ibn Suvayd roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

Bir kuni Rosululloh sollallohu alayhi vasallam bilan orqalariga mingashib oldim. Shunda menga: “Sen(i xotirang)da Umayya Ibn Abu Saltning she‘rlaridan biror narsa bormi?” dedilar. “Ha”, dedim. U zot: “Ho‘sh”, degandilar, men yuz baytgacha o‘qidim<sup>4</sup>.

U zot sollallohu alayhi vasallam shoir Hasson uchun masjidida minbar qilib berardilar. U yerda turib Rosululloh sollallohu alayhi vasallamni she‘rlari bilan himoya qilardi. U zot sollallohu alayhi vasallam aytardilar: “Modomiki Hasson Allohning rosulini himoya qilar ekan, Alloh uni Ruhul qudus (Jabroil) bilan qo‘llab – quvvatlaydi”<sup>5</sup>.

<sup>1</sup> Buxoriy, 2802. Muslim, 1796.

<sup>2</sup> Buxoriy, 3841. Muslim, 2256.

<sup>3</sup> Termiziy, 2850. Ahmad, 20853.

<sup>4</sup> Muslim, 2255.

<sup>5</sup> Termiziy, 2846.



U zot sollallohu alayhi vasallam Hassonga: “Mushriklarni hajv qilaver. Albatta, Jabroil sen bilandir”, derdilar<sup>1</sup>.

### Kulishlari

Nabiy sollallohu alayhi vasallam eng ko‘p tabassum qiluvchi inson edilar<sup>2</sup>. U zot tilchalari ko‘rinib ketadigan darajada kulmasdilar. Faqatgina tabassum qilardilar<sup>3</sup>.

U zot kulsalar oziq tishlari ko‘rinardi<sup>4</sup>.

Sahobalaridan kimni ko‘rsalar ham yuziga tabassum qilardilar<sup>5</sup>.

U zot sollallohu alayhi vasallam bomdodni o‘qigach, namoz o‘qigan joylaridan quyosh chiqmagunicha turmasdilar. Quyosh chiqqach turardilar. Odamlar bilan gaplashar, johiliyat ishlarini eslashar va kulishar edi. U zot esa tabassum qilardilar<sup>6</sup>.

### Hazil qilishlari

U zot sollallohu alayhi vasallam Anas roziyallohu anhuga: “Ey ikki quloq egasi”, derdilar<sup>7</sup>.

Ba‘zi sahobalar, “Ey Allohning rosuli, siz biz bilan hazillashyabsiz”, deyishsa, “Albatta men, haqdan boshqasini

<sup>1</sup> Buxoriy, 4124. Muslim, 2486.

<sup>2</sup> Termiziy, 3641. Ahmad, 17713.

<sup>3</sup> Buxoriy, 4828. Muslim, 899.

<sup>4</sup> Buxoriy, 6520. Muslim, 2792.

<sup>5</sup> Buxoriy, 3035. Muslim, 2475.

<sup>6</sup> Muslim, 2322.

<sup>7</sup> Abu Dovud, 5002. Termiziy, 1992. Ahmad, 12164.



gapirmayman”, derdilar<sup>1</sup>. Ya‘ni hazil qilsalar ham, haq so‘zlar bilan qilar, yolg‘on gapirmas edilar.

Anas roziyallohu anhu aytadi: Nabiyy sollallohu alayhi vasallam biz bilan aralashib yurardilar. Hatto ukamga: “Ey Umayr, nima qildi Nug‘ayr?” derdilar<sup>2</sup>. Ya‘ni, Umayrning Nug‘ayr ismli qushchasi o‘lib qolganda, shunday yo‘l bilan uni ko‘nglini ko‘targanlar.

Bir kuni Nabiyy sollallohu alayhi vasallam Zohir roziyallohu anhu bozorda narsalarini sotayotganida oldiga keladilar. Uni yaxshi ko‘rardilar. Vaholanki, u yuzi hunuk kishi edi. Uni orqasidan quchoqlab turib, **“Kim bu qulni sotib oladi?”** dedilar.

Shunda u: “Ey Allohning rosuli, unday bo‘lsa men juda arzon qul ekanman”, dedi. U zot sollallohu alayhi vasallam esa: **“Lekin Allohning huzurida sen qimmatsan”**, dedilar<sup>3</sup>.

Bir kampir Nabiyy sollallohu alayhi vasallam oldilariga kelib: “Ey Allohning rosuli, meni jannatga kiritishini Allohdan so‘rang!” dedi.

U zot sollallohu alayhi vasallam esa: “Ey Falonchi, jannatga kampirlar kirmaydi”, dedilar. Kampir yig‘lagancha burilib ketdi. Shunda u zot sollallohu alayhi vasallam: “Unga xabar qilinglarki, u kampir holatida jannatga kirmaydi. Alloh

<sup>1</sup> Termiziy, 1990.

<sup>2</sup> Buxoriy, 6129. Muslim, 2150.

<sup>3</sup> Ahmad, 12648.



taolo aytadi: **“Biz ularni daf‘atan yaratdik. Ularni bokiralar qildik. Teng yoshli bo‘yi yetgan qizlar qildik”<sup>1</sup>, deydi”, dedilar<sup>2</sup>.**

### Shijoatlari

Rosululloh sollallohu alayhi vasallam insonlarning eng shijoatlisi edilar.

Bir kuni madinada baland shovqin eshitilib, odamlar qo‘rquvga tushdi. Insonlar ovoz tomon yuzlandilar. Yo‘lda Rosulullohni u yerdan qaytayotgan hollarida yo‘liqishdi. U zot ovoz tomon ulardan o‘zib ketgandilar. O‘shanda Abu Talhaning egarsiz oti ustida edilar. Bo‘ynida qilich osig‘liq edi. U zot sollallohu alayhi vasallam bo‘lsa, odamlarga: **“Qo‘rqmanglar, qo‘rqmanglar”**, derdilar.

Anas roziyallohu anhu aytadi: **“U zot (jasoratda) dengiz edilar”<sup>3</sup>.**

### Kiyimlari

U zot sollallohu alayhi vasallam eng yaxshi ko‘rgan kiyimlari Qomiys edi<sup>4</sup>. Qomiys hozirda arablar kiyadigan uzun ko‘ylak. Ko‘ylaklarining yengi rusg‘<sup>5</sup>larigacha edi. Ko‘ylaklari tugmasiz edi<sup>6</sup>.

<sup>1</sup> Voqea surasi, 35-37-oyatlar.

<sup>2</sup> Termiziy. “Shamoil”, 205.

<sup>3</sup> Buxoriy, 6033. Muslim, 2307.

<sup>4</sup> Abu Dovud, 4025. Termiziy, 1762. Nasaiy, 9589. Ibn Moja, 3575.

<sup>5</sup> Rusg‘ – qo‘lning soat taqiladigan yeri.

<sup>6</sup> Abu Dovud, 4027. Ibn Moja, 3578. Ahmad, 15581.





U zot sollallohu alayhi vasallam qizil ranglari bor, yo‘l yo‘l, biroz dag‘al matoni ikki yelkalariga tashlab olardilar<sup>1</sup>.

Uhud g‘azotida ikkita sovutni ustma-ust kiyganlar<sup>2</sup>. Urushda boshlariga dubulg‘a kiyardilar<sup>3</sup>.

### Kiyimlarining rangi

U zot sollallohu alayhi vasallamning eng yaxshi ko‘rgan kiyimlari hibaro edi<sup>4</sup>. Hibaro yo‘l yo‘l kiyim bo‘lib, ziynatlari kam va kirlikni ham ko‘taradigan matodan iboratdir.

U zot sollallohu alayhi vasallam qizil yo‘l-yo‘l hulla kiyardilar<sup>5</sup>.

Hulla - beldan pastga kiyiladigan izor va ustidan tashlanadigan ridodan iborat kiyim.

Yana u zot sollallohu alayhi vasallam ikkita yashil rangli plash kiyardilar<sup>6</sup>.

Yana u zot sollallohu alayhi vasallam ikkita eski yopinchiqcha kiyardilar<sup>7</sup>.

Yana u zot sollallohu alayhi vasallam egar surati bor bo‘lgan, qora jundan qilingan plash kiyardilar<sup>8</sup>.

<sup>1</sup> Ahmad, 13763.

<sup>2</sup> Termiziy, 3738.

<sup>3</sup> Buxoriy, 1846. Muslim, 1357.

<sup>4</sup> Buxoriy, 5812. Muslim, 2079.

<sup>5</sup> Termiziy, 197. Ahmad, 18759.

<sup>6</sup> Abu Dovud, 4206. Termiziy, 2812. Nasaiy, 1572. Ahmad, 17496.

<sup>7</sup> Termiziy, 2814.

<sup>8</sup> Muslim, 2081.



Yana u zot sollallohu alayhi vasallam yenglari tor bo‘lgan Shom o‘lkasida tikiladigan jubba kiyardilar<sup>1</sup>. Jubba – ko‘ylak ustidan kiyiladigan cho‘ponga o‘xshagan kiyim.

Yana u zot sollallohu alayhi vasallam qora salla kiyardilar. Sallaning peshini esa ikki yelka orasiga tushirib olardilar<sup>2</sup>.

U zot vafot etganlarida egnilarida Yamanda tikiladigan dag‘al izor va yamoqli kiyim bor edi<sup>3</sup>.

U zot sollallohu alayhi vasallam aytardilar: **“Oq kiyimlaringizdan kiyinglar. Chunki u kiyimlaringizning eng yaxshilaridandir. Va u bilan o‘liklaringizni kafanlanglar”<sup>4</sup>.**

### **Kiyim kiyayotib nima derdilar**

Rosululloh sollallohu alayhi vasallam aytardilar yangi kiyim olsalar uning ismini aytib turib – mana shu ko‘ylakni, yoki sallani deb turib – duo qilardilar. **“Ey Alloh, senga hamdlar bo‘lsin. Sen uni menga kiydirding. Uning yaxshiligini va unga bitilgan yaxshi narsalarni so‘rayman. Va uning yomonligidan va unga bitilgan yomon narsalardan panoh so‘rayman”<sup>5</sup>,** derdilar.

Kiyim kiyishni o‘ng tomonidan boshlardilar<sup>6</sup>.

U zot sollallohu alayhi vasallam aytardilar:

<sup>1</sup> Buxoriy, 363. Muslim, 274.

<sup>2</sup> Muslim, 1359.

<sup>3</sup> Buxoriy, 3108. Muslim, 2080.

<sup>4</sup> Termiziy, 994. Nasaiy, 5323. Ibn Moja, 3566. Ahmad, 20185.

<sup>5</sup> Abu Dovud, 4020. Termiziy, 1767. Ahmad, 11248.

<sup>6</sup> Termiziy, 1766. Nasaiy, 9590.



“Kim kiyim kiysa va: **“Bu kiyimni menga kiydirgan va uni men tomonimdan biror kuch va quvvatsiz menga rizq qilib bergan Allohga hamd bo‘lsin”**, desa avval o‘tgan gunohlari kechiriladi”<sup>1</sup>.

### Uzumlari

Rosululloh sollallohu alayhi vasallamning kumush uzumlari bo‘lard<sup>2</sup>. Uzumlarning ko‘zi habashiy (aqiq toshi) edi<sup>3</sup>. Uzuk ko‘zini kaft taraflariga qilib olar edilar<sup>4</sup>. Ba‘zida uzukni o‘ng qo‘llarining<sup>5</sup> jimjilog‘iga<sup>6</sup> taqsalar, ba‘zida chap jimjiloqlariga taqardilar<sup>7</sup>.

Uzumlarning naqshi uch qator yozuv edi. “Muhammad” bir qator, “Rosul” bir qator, “Alloh” bir qator<sup>8</sup>.

Ba‘zi kishilar “Muhammad” so‘zi eng pastda, uning tepasida “Rosul”, uning tepasida “Alloh” so‘zi bo‘lgan, deyishadi. Ammo bunga dalil yo‘q. Aksincha, rivoyatda kelishiga ko‘ra birinchi qatorda “Muhammad”, ikkinchi qatorda “Rosul”, uchinchi qatorda “Alloh” so‘zi bo‘lgan<sup>9</sup>.

<sup>1</sup> Abu Dovud, 4023. Termiziy, 3458. Ibn Moja, 3285. Ahmad, 15632.

<sup>2</sup> Buxoriy, 5865. Muslim, 2091.

<sup>3</sup> Muslim, 2094.

<sup>4</sup> Buxoriy, 5876. Muslim, 2091.

<sup>5</sup> Abu Dovud, 4226. Nasaiy, 5283. Ibn Moja, 3647. Ahmad, 1746.

<sup>6</sup> Buxoriy, 5874.

<sup>7</sup> Abu Dovud, 2095.

<sup>8</sup> Buxoriy, 3106.

<sup>9</sup> Ibn Hajar. “Fathul boriy”, 10/329.



## Oyoq kiyim va mahsilari

Rosululloh sollallohu alayhi vasallam ikki ipli, eski oyoq kiyim kiyardilar<sup>1</sup>. Rasmdagi Saudiya Muzeyida joylashgan Nabiy sollallohu alayhi vasallam oyoq kiyimlarining nusxasi.



U zot sollallohu alayhi vasallam yamalgan oyoq kiyim kiyardilar<sup>2</sup>.

U zot sollallohu alayhi vasallam Najjoshiy hadya qilgan sodda qora mahsilarini kiyardilar<sup>3</sup>.

Yana u zot sollallohu alayhi vasallam charmdan boʻlgan shippak kiyardilar<sup>4</sup>.

## Qilichlari

Rosululloh sollallohu alayhi vasallam qilichlarining ostki qismi<sup>5</sup> va tutqichi<sup>6</sup> kumushdan boʻlardi. Ikkisining orasida kumush halqalar bolardi<sup>7</sup>.

## Qanday oʻtirardilar?

Rosululloh sollallohu alayhi vasallam tavozu qilgan holda, orqalarini yerga qoʻyib, ikki oyoqlarini qorinlariga

<sup>1</sup> Buxoriy, 3107.

<sup>2</sup> Nasaiy, 9718. Ahmad, 20587.

<sup>3</sup> Abu Dovud, 155. Termiziy, 2820. Ibn Moja, 549. Ahmad, 22981.

<sup>4</sup>

<sup>5</sup> Nasaiy, 5374.

<sup>6</sup> Abu Dovud, 2583. Termiziy, 1691. Nasaiy, 5374.

<sup>7</sup> Nasaiy, 5374.



yopishtirib o‘tirardilar<sup>1</sup>. O‘tirganlarida qo‘llari bilan oyoqlarini tutib o‘tirardilar<sup>2</sup>.

U zot sollallohu alayh vasallam teridan bo‘lgan, ichiga xurmo daraxtining po‘sti to‘ldirilgan<sup>3</sup> yostiqni chap taraflariga qo‘yib suyanardilar<sup>4</sup>.

Yana u zot sollallohu alayhi vasallam masjidida bir oyoqlarini ikkinchisi ustiga qo‘ygan holda chalqancha yotardilar<sup>5</sup>.

### Qanday ovqatlanardilar?

Rosululloh sollallohu alayhi vasallam uchta barmoqlari bilan yerdilar. Taomlanib bo‘lgach, artib tashlashdan oldin uchala barmoqlarini yalardilar<sup>6</sup>.

Sahobalarini ham barmoqlar va tovoqni yalab-tozalab qo‘yishga buyurib: **“Sizlar taomning qaysinisida baraka borligini bilmaysizlar”**, derdilar<sup>7</sup>.

U zot sollallohu alayhi vasallam orqalari bilan o‘tirib, boldirlarini tik qilgan holda ovqat yerdilar. Ovqatni tez va muhtoj bo‘lgandagina yerdilar<sup>8</sup>. Biror taomni yomonlamasdilar. Yoqtirsalar yerdilar, yoqtirmasalar tark qilardilar<sup>9</sup>.

<sup>1</sup> Abu Dovud, 4847.

<sup>2</sup> Buxoriy, 6272.

<sup>3</sup> Buxoriy, 5191.

<sup>4</sup> Abu Dovud, 4143. Termiziy, 2770.

<sup>5</sup> Buxoriy, 2100. Muslim, 2100.

<sup>6</sup> Muslim, 2032.

<sup>7</sup> Muslim, 2033.

<sup>8</sup> Muslim, 3044

<sup>9</sup> Buxoriy, 3563. Muslim, 2064.



U zot sollallohu alayhi vasallam: **“Birortangiz taomi yerga tushib ketsa uni olsin. Undagi ozorni ketkazsinda, yesin. Uni shaytonga qoldirmasin. Barmoqlarini yalab olmaganicha ro‘molchaga artmasin”**, dedilar<sup>1</sup>.

U zot sollallohu alayhi vasallam suyangan holda yemasdilar<sup>2</sup>.

Biror marta likopda ovqatlanmaganlar. Hecham xontaxta ustida ovqat yemaganlar. Faqatgina supralarda yerdilar<sup>3</sup>.

Ulamolar aytishadi: Likopda ovqat yemaganlarining sababi, o‘sha paytda ularda bunday likopcha yasalmagan yoki kichikligi sabab bo‘lishi mumkin. Chunki ular odatda ko‘pchilik bo‘lib ovqatlanishgan. Yoki bu kichik likopchalar hazm qiladigan narsalar uchun ishlatilgan bo‘lsa, ular to‘yadigan darajada ovqatlanishmasdi va hazmi taomga ehtiyojlari bo‘lmagan<sup>4</sup>.

## Taomlari

Rosululloh sollallohu alayhi vasallam qovoqni yaxshi ko‘rardilar.<sup>5</sup> Yana qo‘yning qo‘lini yaxshi ko‘rardilar<sup>6</sup>. Yana tovoqning tagida qolganini yaxshi ko‘rardilar<sup>7</sup>. Tovoqning turli tomonlaridan qovoqlarni yerdilar<sup>8</sup>. Tovuq yerdilar<sup>9</sup>. Bir

<sup>1</sup> Muslim, 3044

<sup>2</sup> Buxoriy, 5398.

<sup>3</sup> Buxoriy, 5386.

<sup>4</sup> Ibn Hajar. “Fathul boriy”, 9/532.

<sup>5</sup> Ahmad, 12822. Nasaiy, 6630.

<sup>6</sup> Buxoriy, 3340. Muslim, 194.

<sup>7</sup> Ahmad, 13300.

<sup>8</sup> Buxoriy, 2092. Muslim, 2041.

<sup>9</sup> Buxoriy, 5517. Muslim, 1649.



safar u zotga qovurilgan qo‘yning qovurg‘a qismi keltirildi. U zot sollallohu alayhi vasallam undan yedilar<sup>1</sup>. Bir safar u zot sollallohu alayhi vasallam sahobalari bilan masjidida qo‘vurilgan go‘sht yedilar<sup>2</sup>.

U zot sollallohu alayhi vasallam va oilalari bir necha kunlab och bo‘lishardi. Yegani hech narsa topishmasdi. Eng ko‘p yeyiladigan nonlari arpa noni edi<sup>3</sup>.

Muhammad alayhissalom oilasi u zot Madinaga kelganidan to vafot qilgunlaricha uch kun ketma-ket bug‘doy taomiga to‘ymagan<sup>4</sup>. U zot uchun yupqa lochira non ham yopilmasdi<sup>5</sup>. Rosululloh sollallohu alayhi vasallam Alloh u zotni yuborgan paytdan to vafot etgunlaricha oq non yemaganlar<sup>6</sup>.

U zot qorinni to‘ldiradigan yomon xurmo ham topmasdilar<sup>7</sup>.

U zot sollallohu alayhi vasallam oilalaridan xurush so‘radilar. Ular: “Bizda faqat sirka bor”, deyishdi. U zot uni chaqirtirdilar. Uni yeya turib: “Sirka naqadar yaxshi xurush. Sirka naqadar yaxshi xurush”, dedilar<sup>8</sup>.

<sup>1</sup> Termiziy, 1829. Nasaiy, 183. Ahmad, 26622.

<sup>2</sup> Ahmad, 17702.

<sup>3</sup> Termiziy, 2360. Ahmad, 3545.

<sup>4</sup> Buxoriy, 5416. Muslim, 2970.

<sup>5</sup> Buxoriy, 5386.

<sup>6</sup> Buxoriy, 5413.

<sup>7</sup> Muslim, 2977.

<sup>8</sup> Muslim, 2977.





Yana u zot sollallohu alayhi vasallam: “Zaytun yog‘idan yenglar va u bilan sochlaringizni moylanglar. Chunki u muborak daraxtdan olinadi”, dedilar<sup>1</sup>.

Nabiy sollallohu alayhi vasallam Zaynab Binti Jahsh roziyallohu anhoga uylanganlarida valiyma – ziyofat qilib berdilar. Odamlarni non va go‘shiga to‘ydirdilar<sup>2</sup>.

Safiyya Binti Huyayga uylanganlarida hays taomi bilan valiyma qilib berganlar. Hays – xurmo pishloq bilan birga yanchib un qilinadi. Unga yog‘ qo‘shib xamir qilib tayyorlanadigan taom.

O‘zlari uchun ertangi kunga biror narsa g‘amlamasdilar<sup>3</sup>.

Muhammad alayhissalom oilasi bir so‘ bug‘doysiz, donsiz kech kirgizardi. Vaholanki, u zotning huzurlarida to‘qqizta ayol bo‘lardi<sup>4</sup>.

Oilalari uchun bir yillik ozuqa qilib qo‘yardilar<sup>5</sup>.

Oisha roziyallohu anho Urvaga aytadi: “Ey opamning o‘g‘li! Hilol ortidan hilol ko‘rib, ikki oyda uchta hilol ko‘rar edik hamki, Rosululloh sollallohu alayhi vasallamning uylarida o‘choqqa o‘t qalanmas edi”, dedi. Men: “Tirikchiliklaring nima bo‘lardi, xola?” dedim. U: “Ikki qora narsa – xurmo va suv. Ammo Rosululloh sollallohu alayhi

<sup>1</sup> Termiziy, 1852. Ahmad, 16054.

<sup>2</sup> Buxoriy, 4794. Muslim, 1428.

<sup>3</sup> Buxoriy, 5425. Muslim, 1365.

<sup>4</sup> Buxoriy, 2069.

<sup>5</sup> Buxoriy, 5357.



vasallamning ansoriy qo‘shnilarida manihalar bo‘lardi. Ular Rosululloh sollallohu alayhi vasallamga o‘shalarning sutidan berishar, u zot bizga ichirar edilar”, dedi”<sup>1</sup>.

Bu yerda xurmo bilan suvni “qora narsa” deb ifoda etishda tanglikda qolishga ishora qilinmoqda.

Maniha – birovga sutini sog‘ib ichish uchun berib turilgan sog‘in hayvondir. Keyinchalik har qanday tortiq ham maniha deyiladigan bo‘lib ketgan.

### Mevalari

Rosululloh sollallohu alayhi vasallam yangi yetilgan (ya‘ni quritilgan emas) xurmoni bodring bilan yerdilar<sup>2</sup>.

Yangi yetilgan xurmoni tarvuz bilan yerdilarda: “Buni issiqligini buni sovuqligi bilan sindiramiz”, derdilar<sup>3</sup>. Yana u zot yangi xurmo bilan sariq tarvuzni jamlab yerdilar<sup>4</sup>.

Odamlar bog‘lari meva bersa, eng birinchisini Nabiy sollallohu alayhi vasallamga olib kelishardi. Uni olib Rosululloh: “Ey Alloh, mevamizga baraka ber, shahrimizga baraka ber, so‘imizga baraka ber, muddimizga baraka ber! Ey Alloh, albatta Ibrohim sening quling va xaliling va payg‘ambaringdir. Va men ham quling va payg‘ambaringman. U sendan Makka uchun duo qilib so‘ragandi. Men ham u Makkaga so‘ragani kabi va yana huddi shuncha narsani

<sup>1</sup> Buxoriy, 2567. Muslim, 2972.

<sup>2</sup> Buxoriy, 5440. Muslim, 2043.

<sup>3</sup> Abu Dovud, 3836. Termiziy, 1843.

<sup>4</sup> Nasaiy, 6692. Ahmad, 12449.



Madina uchun so‘rayman”, dedilar. Keyin uning kichik bolasini chaqirtirib, mevani unga berardilar<sup>1</sup>.

### Taomlanishdan oldin va keyin nima derdilar?

Rosululloh sollallohu alayhi vasallam bir bolaga: “Ey bola, Allohni ismini ayt, va o‘ng qo‘ling bilan ye, va oldingdan ye!” dedilar<sup>2</sup>.

Taomlanish boshida Allohni zikr qilmagan odam haqida quyidagini aytganlar: “Birortangiz ovqat yesa Allohni zikr qilsin. Boshida Allohning ismini zikr qilishni unutgan bo‘lsa, **“Bismillahi avvalahu va aaxirohu”** desin”, dedilar<sup>3</sup>.

Ma‘nosi: “Avvalida ham oxirida ham Allohning ismi bilan (yeyman)”.

" الْحَمْدُ لِلَّهِ كَثِيرًا طَيِّبًا مُبَارَكًا فِيهِ، غَيْرَ مَكْفِيٍّ، وَلَا مُودَعٍ وَلَا مُسْتَعْنَى عَنْهُ، رَبَّنَا "

Taomlanib bo‘lsalar: **“Alhamdulillah kasiyron toyyiban mubaarokan fiyhi, g‘oyro makfiyyin valaa muvadda’in valaa mustag‘nan ‘anhu robbanaa”**, derdilar<sup>4</sup>.

Ma‘nosi: “Allohga ko‘p, pok, muborak, kifoyalanilmaydigan, tashlab qo‘yilmaydigan, behojat bo‘linmaydigan hamd bo‘lsin. (Ey) Robbimiz!”

" الْحَمْدُ لِلَّهِ الَّذِي كَسَانِي هَذَا الثَّوْبَ وَرَزَقَنِيهِ مِنْ غَيْرِ حَوْلٍ مِنِّي وَلَا قُوَّةٍ "

<sup>1</sup> Muslim, 1373.

<sup>2</sup> Buxoriy, 5376. Muslim, 2022.

<sup>3</sup> Abu Dovud, 3767. Termiziy, 1858. Ibn Moja, 3264. Ahmad, 25106.

<sup>4</sup> Buxoriy, 5458.



Yana u zot sollallohu alayhi vasallam: “Kim taomlanib bo‘lib **“Alhamdu lillaahil-laziy at‘amany hazat-to‘ama, varozaqoniyhi min g‘oyri havlin minniy vala quvvatin”** desa, avval o‘tgan gunohlari kechiriladi”, dedilar<sup>1</sup>.

Ma‘nosi: “Men tomondan kuch va quvvatsiz meni bu taom bilan taomlantirgan va rizqlantirgan Allohga hamd bo‘lsin”.

### Ichimliklari

Rosululloh sollallohu alayhi vasallam shirinliklar va asalni yaxshi ko‘rardilar<sup>2</sup>.

U zot eng yaxshi ko‘rgan ichimliklari sovuq suv edi<sup>3</sup>.

U zot sollallohu alayhi vasallam ichimlik ichadigan jomlari bo‘lardi. U sinib qoldi, uning singan yeriga kumush chega<sup>4</sup> qo‘ydilar<sup>5</sup>.

### Qanday ichardilar?

Rosululloh sollallohu alayhi vasallam o‘tirgan holda va zarurat bo‘lib qolsa tik turgan holda suv ichardilar<sup>6</sup>.

Turib ichishdan qaytarganlar<sup>7</sup>.

Osib qo‘yilgan mesh og‘zidan turgan holda ichardilar.

<sup>1</sup> Abu Dovud, 4023.

<sup>2</sup> Buxoriy, 5431. Musilm, 1474.

<sup>3</sup> Termiziy, 1895. Nasaiy, 6815. Ahmad, 24100.

<sup>4</sup> Chega – chinni asboblarning sinig‘ini ulash uchun ishlatiladigan, ikkala uchi qayrilgan merall mixcha.

<sup>5</sup> Buxoriy, 3109.

<sup>6</sup> Termiziy, 1895. Nasaiy, 6815. Ahmad, 24100.

<sup>7</sup> Muslim, 2025.



U zot mesh osib qo‘yilgani uchun yoki idish topilmagani tufayli zarurat yuzasidan mesh og‘zidan ichganlar. Chunki u zot sollallohu alayhi vasallam idishning og‘zidan ichishdan qaytarganlar<sup>1</sup>.

Suv ichsalar (idish tashqarisidagi) uch nafasga bo‘lib ichardilar<sup>2</sup>.

Idish ichiga nafas olishdan va unga puflashdan qaytardilar<sup>3</sup>.

O‘ng qo‘llari bilan ichardilar<sup>4</sup>.

Aytardilarki: “Albatta, Alloh bandasi ovqatini yeb Unga hamd aytishidan, yoki ichimligini ichib Unga hamd aytishidan rozi bo‘ladi”<sup>5</sup>.

## Ochliklari

Abu Hurayra roziyallohu anhu aytadi:

Rosululloh sollallohu alayhi vasallam bir kuni – yoki kechasi – tashqariga chiqdilar. Qarasalar Abu Bakr va Umar (ham tashqarida ekan). U zot: “Shu payt sizlarni tashqariga nima chiqardi?”, dedilar. Ular: “Ochlik, ey Allohning rosuli”, deyishdi. U zot: “Jonim qo‘lida bo‘lgan zotga qasamki, meni ham sizlarni chiqargan narsa chiqardi. Turinglar!” dedilar. Ular turdilar va u zot bilan bir ansoriyning uyiga bordilar. Qarashsa, u uyda yo‘q ekan. Ayoli u zotni ko‘rgach: “Marhabo,

<sup>1</sup> Buxoriy, 5628.

<sup>2</sup> Buxoriy, 5631. Muslim, 2028.

<sup>3</sup> Abu Dovud, 3728. Termiziy, 1888. Ahmad, 1907.

<sup>4</sup> Abu Dovud, 32.

<sup>5</sup> Muslim, 2734.



xush kelibsiz”, dedi. Rosululloh sollallohu alayhi vasallam ayoldan: “Falonchi qayerda?” deb so‘radilar.

Ayol: “Bizga suv keltirish uchun ketdi”, dedi. Shu payt ansoriy kelib qoldi. U Rosululloh va ikki sohibiga qaradida “Allohga hamd bo‘lsin. Bugun eng karamli mehmon mendan boshqasida bo‘lmaydi.”, dedi.

Ansoriy jo‘nadi va ularga rangdor, qurigan va yangi xurmolari bor bir shox keltirdi. “Olinglar”, dedida, o‘zi pichoqni oldi. Rosululloh sollallohu alayhi vasallam: “Sut beradiganidan chetlan (ya‘ni so‘yma!)” dedilar.

Ularga bir qo‘y so‘ydi va ular undan va shoxdagi xurmolardan yedilar va ichdilar. To‘ygach va chanqoqlari qongach Rosululloh sollallohu alayhi vasallam Abu Bakr va Umarga: **“Jonim qo‘lida bo‘lgan Zotga qasamki, qiyomat kuni shu ne‘matdan albatta so‘ralasiz. Ochlik sizlarni chiqardi. So‘ngra shu ne‘matga yetmay turib uyingizga qaytib ketmadingiz”**<sup>1</sup>.

### Xushbo‘ylanishlari

Rosululloh sollallohu alayhi vasallamning xushbo‘ylanadigan atirlari bo‘lard<sup>2</sup>. Birov atir bersa ham rad qilmasdilar<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> Muslim, 2038.

<sup>2</sup> Abu Dovud, 4162.

<sup>3</sup> Buxoriy, 2582.



U zot sollallohu alayhi vasallam aytdilar: “Kimga rayhon taklif qilinsa, rad qilmasin. Chunki uni ko‘tarib yurish oson, hidi esa yaxshidir”<sup>1</sup>.

Yana aytdilarki: “Erkaklarning atiri hidi ko‘rinib, rangi ko‘rinmaganidir. Ayollarning atiri esa rangi ko‘rinib, hidi ko‘rinmaganidir”<sup>2</sup>.

### Uyqulari:

Rosululloh sollallohu alayhi vasallam o‘rinlariga joylashsalar kaftlarini birlashtirib, ichiga dam solardilar. Va ichiga “Qul huvallohu ahad”ni, “Qul a’zuuzu birobbil falaq”ni va “Qul a’zuuzu birobbin naas”ni o‘qirdilar. Keyin tanalaridan qodir bo‘lgan yerlarini silardilar. Boshlari va yuzlaridan boshlab tanalarining oldini uch marta silardilar<sup>3</sup>.

" الْحَمْدُ لِلَّهِ الَّذِي أَطْعَمَنَا وَسَقَانَا وَكَفَانَا وَأَوَانَا فَكَمْ مِمَّنْ لَا كَافِيَ لَهُ وَلَا مُؤَيِّ "

Va “Alhamdulillaahil-laziy at‘amanaa vasaqoonaa vakafaanaa va aavaanaa. Fakam mimman laa kaafiya lahu valaa mu‘viya”, dedilar<sup>4</sup>.

Ma‘nosi: “Bizni yedirib ichirgan, yetqizgan va joy bergan Allohga hamd bo‘lsin. Qancha kishilarni yetqizuvchisi va joy beruvchisi yo‘q”

So‘ngra o‘ng taraflari bilan yotardilar.

<sup>1</sup> Muslim, 2253.

<sup>2</sup> Termiziy, 2787. Nasaiy, 5117.

<sup>3</sup> Buxoriy, 5017.

<sup>4</sup> Muslim, 2715.





"اللَّهُمَّ أَسَلَمْتُ نَفْسِي إِلَيْكَ، وَوَجَّهْتُ وَجْهِي إِلَيْكَ، وَفَوَّضْتُ أَمْرِي إِلَيْكَ، وَأَلْجَأْتُ ظَهْرِي إِلَيْكَ، رَغْبَةً وَرَهْبَةً إِلَيْكَ، لَا مَلْجَأَ وَلَا مَنْجَا مِنْكَ إِلَّا إِلَيْكَ، أَمَنْتُ بِكِتَابِكَ الَّذِي أَنْزَلْتَ، وَنَبِيِّكَ الَّذِي أَرْسَلْتَ"

So'ngra quyidagi duoni o'qirdilar: **"Allohumma aslamtu nafsiy ilayka, va vajihtu vajhiy ilayka, va favvaztu amriy ilayka, va alja'tu zohriy ilayka, rog'batan va rohbatan ilayka, laa malja'a valaa manjaa illaa ilayka, aamantu bikitaabikal-laziy anzalta, va binabiyyikal-laziy arsalta"**<sup>1</sup>.

Ma'nosi: "Ey Alloh, Senga rag'bat qilgan holda va Sendan qo'rqqan holda jonimni Senga topshirdim. Yuzimni Senga yuzladim. Ishimni Senga topshirdim. Belimni Sendan panoh topdirdim. Sendan o'zga panohgoh va najotgoh yo'q. Nozil qilgan kitobingga va jo'natgan payg'ambaringga iymon keltirdim"

**"Kim shu duoni o'qisa va o'sha kechasi o'lsa, fitrat ustida o'lgan bo'ladi", dedilar<sup>2</sup>.**

Keyin o'ng qo'llarini o'ng yanoqlari ostiga qo'yardilar. Keyin **"Allohumma bismika amuutu va ahyaa"**, derdilar<sup>3</sup>.

Ma'nosi: "Ey Alloh, sening ismin bilan o'laman va tirilaman"

"رَبِّ قِنِي عَذَابَكَ يَوْمَ تَبْعَثُ عِبَادَكَ"

<sup>1</sup> Buxoriy, 6315. Muslim, 2710.

<sup>2</sup> Buxoriy, 6315. Muslim, 2710.

<sup>3</sup> Buxoriy, 6314. Muslim, 2711.



Va: “Robbi qiniy ‘azaabaka yavma tab‘asu ‘ibaadaka”, derdilar<sup>1</sup>.

U zot sollallohu alayhi vasallam yotib uxlardilar, hatto xurрак otardilar. Bilol kelib azon aytgach, turib namoz o‘qirdilar, tahorat qilmasdilar<sup>2</sup>.

Oisha roziyallohu anho aydilar: “Ey Allohning rosuli, vitr o‘qishdan oldin uxlaysizmi?” Shunda u zot: “Ey Oisha! Albatta, ikki ko‘zim uxlaydi, ammo qalbim uxlamaydi”, dedilar<sup>3</sup>.

### Yotoqlari

Rosululloh sollallohu alayhi vasallam uxlaydigan yotoqlari bor yo‘g‘i ichiga xurmo daraxtining po‘sti to‘ldirilgan teri bo‘lardi<sup>4</sup>.

Yana u zot sollallohu alayhi vasallam xurmo barglaridan to‘qilgan bo‘yra ustida yotardilar. U bilan o‘rtalarida to‘shak bo‘lmasdi.

U zot sollallohu alayhi vasallam xurmo daraxtining po‘sti to‘ldirilgan terili yostiqqa suyanardilar<sup>5</sup>.

### Uyg‘onishlari

Rosululloh sollallohu alayhi vasallam uyqudan uyg‘onsalar qo‘llarini yuzlariga surib uyquni ketkazardilar<sup>6</sup>.

" الْحَمْدُ لِلَّهِ الَّذِي أَحْيَانَا بَعْدَ مَا أَمَاتَنَا وَإِلَيْهِ النُّشُورُ "

<sup>1</sup> Termiziy, 3399. Nasaiy, 10528. Ahmad, 23244.

<sup>2</sup> Buxoriy, 138. Muslim, 763.

<sup>3</sup> Buxoriy, 1147. Muslim, 738.

<sup>4</sup> Buxoriy, 6456. Muslim, 2082.

<sup>5</sup> Buxoriy, 2468.

<sup>6</sup> Buxoriy, 183. Muslim, 763.



Keyin: “Alhamdulillahil-laziy ahyanaa ba’damaa amaataanaa va ilayhin-nushuur”, derdilar<sup>1</sup>.

Ma’nosi: “Bizni o‘ldirganidan keyin qayta tiriltirgan Allohga hamd bo‘lsin. Qaytib borish Ungadir”.

Keyin Oli Imron surasining oxirgi o‘n oyatini o‘qirdilar. Keyin osib qo‘yilgan meshga borib, go‘zal tarzda tahorat olardilar. Keyin turib namoz o‘qirdilar<sup>2</sup>.

### **Kechasi qiyomga turishlari**

Rosululloh sollallohu alayhi vasallam oyoqlari ishib ketgunicha namozda qoim turardilar. Oisha roziyallohu anho: “Ey Allohning rosuli, Alloh sizning oldingi-yu keyingi gunohlaringizni kechirib qo‘ygan bo‘lsa ham shunday ish qilasizmi?” dedi. U zot: **“Shukr qiluvchi banda bo‘lmayinmi?”** dedilar<sup>3</sup>.

U zot sollallohu alayhi vasallam kechening avvalida uxlab, oxirida turardilar. O‘n bir rakat namoz o‘qirdilar. Har ikki rak‘atda salom berib, oxirida bir rak‘at vitr o‘qirdilar.

Keyin ahli oilalarida ehtiyojlari bo‘lsa, uni qondirar, keyin yotoqlariga qaytardilar. Muazzin bomdodga azon aytganda sakrab turar, agar lozim bo‘lsa g‘usl qilardilar. Junub bo‘lmagan bo‘lsalar namozda tahorat qilardilar-da, ikki rak‘at yengil namoz o‘qirdilar.

<sup>1</sup> Buxoriy, 6314. Muslim, 2711.

<sup>2</sup> Buxoriy, 183. Muslim, 763.

<sup>3</sup> Buxoriy, 1130, 4853. Muslim, 2820.



Keyin toki muazzin kelib iqomani xabarini bermagunicha o'ng taraflari bilan yotardilar. Muazzin xabar qilgach chiqardilar<sup>1</sup>.

Kechasi namoz o'qishga tursalar, ikki rak'at yengil namoz bilan boshlardilar<sup>2</sup>.

U zot sollallohu alayhi vasallam Ramazonda ham, undan boshqa vaqtda ham o'n bir rak'at namozga ziyoda qilmas edilar: to'rt rak'at o'qir edilar. Ularning go'zalligiyu uzunligi haqida asti so'rama. So'ng yana to'rt rak'at o'qir edilar. Ularning go'zalligiyu uzunligi haqida asti so'ra! Keyin esa uch rak'at o'qir edilar<sup>3</sup>.

Vafotlariga bir yil qolguncha ham tungi namozlarini hech o'tirib o'qimasdilar. Undan keyin o'tirib o'qiydigan bo'ldilar. O'tirgan holda qiroat qilar, qiroatlarining oxirida o'ttiz yoki qirq oyat qolganda turardilar va qolganini turib o'qirdilar. So'ngra ruku' qilar, so'ng sajda qilar edilar. Ikkinchi rak'atda ham shunday qilardilar<sup>4</sup>.

Biror surani qiroat qilsalar, uni tartil bilan o'qirdilar. Hatto undan uzunroq bo'lgan suradan-da uzun bo'lib ketardi<sup>5</sup>.

<sup>1</sup> Buxoriy, 1146, 631. Muslim, 739, 736.

<sup>2</sup> Muslim, 767.

<sup>3</sup> Buxoriy, 1147. Muslim, 738.

<sup>4</sup> Buxoriy, 1118. Muslim, 738.

<sup>5</sup> Muslim, 733.



Bir kecha qiyomda turib Qur‘ondan bir oyatni takror qildilar<sup>1</sup>.

Ba‘zi kechalari turgan holda uzun namoz o‘qirdilar, ba‘zida o‘tirgan holda uzun namoz o‘qirdilar. Turgan o‘qigan namozlarida ruku‘ni ham turib qilar edilar. O‘tirib o‘qigan namozlarida ruku‘ni ham o‘tirib qilar edilar<sup>2</sup>.

Ibn Mas‘ud roziyallohu anhu aytadi: “Bir kecha Nabiy sollallohu alayhi vasallam bilan birga namoz o‘qidim. U zot qiyomda turaverganidan bir yomon ish qilgim kelib ketdi”. Nima qilging kelib ketdi, deyildi. “Nabiy sollallohu alayhi vasallamni qo‘yib, o‘zim o‘tirib olgim keldi”, dedi<sup>3</sup>.

Nabiy sollallohu alayhi vasallam kasallik yoki boshqa biror sabab bilan tungi namozlarni o‘tkazib yuborsalar, kunduzi o‘n ikki rak‘at qilib o‘qib qo‘yardilar<sup>4</sup>.

### Nafli namozlari

Rosululloh sollallohu alayhi vasallam Oisha roziyallohu anhoning uyida peshindan oldin to‘rt rak‘at namoz o‘qirdilar. Keyin chiqib odamlarga peshinni o‘qib berar edilar. Keyin uyga kirib ikki rak‘at namoz o‘qirdilar. Xuftonni ham odamlarga o‘qib berganlaridan keyin Oisha roziyallohu anhoning uyiga kirib ikki rak‘at namoz o‘qirdilar. Tong otganda ham ikki rak‘at namoz o‘qirdilar<sup>5</sup>.

<sup>1</sup> Termiziy, 448. Ahmad, 21538.

<sup>2</sup> Muslim, 730.

<sup>3</sup> Buxoriy, 1135. Muslim, 773.

<sup>4</sup> Muslim, 746.

<sup>5</sup> Buxoriy, 1180. Muslim, 730.



U zot sollallohu alayhi vasallam asrdan oldin to‘rt rak‘at namoz o‘qirdilar. Har ikki rak‘atda muqarrab farishtalarga, nabiylar, rosullar va ularga ergashgan mo‘min-musulmonlarga salom berardilar<sup>1</sup>.

Zuho namozini to‘rt rak‘at o‘qir, unga istagancha ziyoda qilardilar<sup>2</sup>.

Ba‘zan Zuho namozini olti rak‘at o‘qirdilar<sup>3</sup>.

U zot sollallohu alayhi vasallam aytdilar: “Alloh taolo aytadi: “Ey odam bolasi! Kunning avvalida men uchun to‘rt rak‘at namoz o‘qi, kun oxirida senga kifoya qilaman””.

### Uydagi nafl namozlari:

Rosululloh sollallohu alayhi vasallam Oisha roziyallohu anhoning uyida peshindan oldin to‘rt rak‘at namoz o‘qirdilar. Keyin chiqib odamlarga peshinni o‘qib berar edilar. Keyin uyga kirib ikki rak‘at namoz o‘qirdilar.

Odamlarga shomni o‘qib berib, uyga kirib ikki rak‘at namoz o‘qirdilar. Xuftonni ham odamlarga o‘qib berganlaridan keyin Oisha roziyallohu anhoning uyiga kirib ikki rak‘at namoz o‘qirdilar. Tong otganda ham ikki rak‘at namoz o‘qirdilar<sup>4</sup>.

Abdulloh Ibn Mas‘ud Rosululloh sollallohu alayhi vasallamdan “Uyda o‘qigan namozim afzalmi yoki masjidida?”

<sup>1</sup> Termiziy, 598.

<sup>2</sup> Muslim, 719.

<sup>3</sup> Tabaroniy. “Avsat”, 4411.

<sup>4</sup> Buxoriy, 1180. Muslim, 730.



deb so‘raydi. Shunda u zot sollallohu alayhi vasallam: “Mening uyimni masjidga naqadar yaqin ekanini ko‘rmaysanmi? Shunga qaramay, uyimda namoz o‘qishim masjidda o‘qiganimdan ko‘ra sevikliroq. Farz namozlar bundan mustasno”, dedilar<sup>1</sup>.

### Sadaqa qilishlari

Rosululloh sollallohu alayhi vasallam insonlarning eng saxiyi edilar. Eng saxiy bo‘ladigan paytlari Ramazonda Jabroyil bilan ko‘rishganlarida bo‘lardi<sup>2</sup>.

U zot sollallohu alayhi vasallam aytadilar: “Uhuddek oltinim bo‘lsa, shundan qarzga ajratadiganimdan boshqa biror narsani huzurimda uch kun qoldirishni istamasdim”<sup>3</sup>.

Yana aytadilar: “Agar mana shu tikan daraxtlar sonicha chorvam bo‘lganida, uni albatta sizlarga taqsimlab bergan bo‘lardim, shunda mening baxil ham, yolg‘onchi ham, qo‘rqoq ham emasligimni ko‘rar edingiz”<sup>4</sup>.

Bir kishi Nabiyy sollallohu alayhi vasallamdan ikki tog‘ orasidagi qo‘ylarni so‘ragandi, ularni unga berib yubordilar. Shunda u kishi qavmiga borib aytdi: “Ey qavmim, islomga kiringlar! Allohga qasamki, albatta Muhammad kambag‘allikdan qo‘rqmay, sadaqa qilar ekan”<sup>5</sup>.

<sup>1</sup> Ibn Moja, 1278. Ahmad, 19007.

<sup>2</sup> Buxoriy, 3554. Muslim, 2308.

<sup>3</sup> Buxoriy, 2389. Muslim, 991.

<sup>4</sup> Buxoriy, 2821.

<sup>5</sup> Muslim, 2312.





## Ro‘zalari

Rosululloh sollallohu alayhi vasallam Ramazon oyidan boshqasida bir oy to‘liq ro‘za tutmaganlar. U zot shunday ro‘za tutardilarki, ko‘rgan odam “Allohga qasamki, endi og‘zi ochiq bo‘lmasa kerak”, deb yuborardi. U zot og‘zi ochiq holda shunday yurardilarki, ko‘rgan odam: “Allohga qasam, endi ro‘za tutmasalar kerak”, derdi<sup>1</sup>.

Sha‘bon oyida ko‘p ro‘za tutganlaridek boshqa biror oyda tutmasdilar<sup>2</sup>.

Har oy avvalida uch kun ro‘za tutar edilar<sup>3</sup>.

Har oy uch kun ro‘za tutardilar. Oyning qaysi kuni tutayotganlariga e‘tibor qilmasdilar.<sup>4</sup>

Dushanba va payshanba kunlari ro‘za tutishni ixtiyor qilardilar<sup>5</sup>.

U zot sollallohu alayhi vasallam aytardilar: “Amallar dushanba va payshanba kuni ko‘tariladi. Shunday ekan, mening amalim ro‘zador holimda ko‘tarilishini istayman”<sup>6</sup>.

U zot sollallohu alayhi vasallam Ashuro kuni ro‘za tutardilar. Madinaga kelganlarida u kunni ro‘zasini tutganlar va sahobalarga ham tutishga buyurganlar. Keyin Ramazon

<sup>1</sup> Buxoriy, 1969. Muslim, 1157.

<sup>2</sup> Buxoriy, 1969. Muslim, 782.

<sup>3</sup> Abu Dovud, 2450. Termiziy, 742. Nasaiy, 2368.

<sup>4</sup> Muslim, 1160.

<sup>5</sup> Termiziy, 745. Nasaiy, 2508. Ahmad, 24748.

<sup>6</sup> Termiziy, 747. Nasaiy, 2358.



ro‘zasi farz qilingach, Ashuroni istagan kishi tutib, istagan tutmaydigan bo‘ldi<sup>1</sup>.

U zot sollallohu alayhi vasallam aytdilar: “Arafa kunining ro‘zasi o‘zidan avvalgi yil va keyingi yilni kafforat qilishini Allohdan umid qilaman.

Ashuro kunining ro‘zasi esa o‘zidan avvalgi yilni kafforat qilishini umid qilaman”<sup>2</sup>.

Yana aytadilarki: “Ramazondan keyingi eng afzal ro‘za Muharram oyining ro‘zasidir. Farzlardan keyingi eng afzal namoz tungi namozdir”<sup>3</sup>.

### Qiroatlari

Nabiy sollallohu alayhi vasallam madlar bilan cho‘zib qiroat qilardilar. “Bismillaahir rohmaanir rohiym”, desalar, “Bismillaah” da cho‘zardilar, “Arrohmaan” da cho‘zardilar va “Arrohiyym” da cho‘zardilar<sup>4</sup>.

Qiroatlarini oyat – oyat qilib bo‘lib o‘qirdilar. “Bismillaahir rohmaanir rohiym”, deb to‘xtardilar. Keyin “Alhamdu lillaahi robbil ‘aalamiyn”, deb to‘xtardilar. Keyin “Arrohmaanir rohiym”, deb to‘xtardilar. Keyin “Maaliki yavmiddiyn”, derdilar<sup>5</sup>.

<sup>1</sup> Buxoriy, 2002. Muslim, 1125.

<sup>2</sup> Muslim, 1162.

<sup>3</sup> Muslim, 1163.

<sup>4</sup> Buxoriy, 5046.

<sup>5</sup> Abu Dovud, 4001. Termiziy, 2927. Ahmad, 26583.



U zot sollallohu alayhi vasallam Makka fathi kuni Fath surasini qiroat qildilar va uch marta “o-o, o-o, o-o” deb uni ohang bilan o‘qidilar<sup>1</sup>.

U zot sollallohu alayhi vasallamn uy ichida turib xonadagi odamlar eshitadigan balandlikda qiroat qilardilar<sup>2</sup>.

Oisha roziyallohu anhodan so‘raldi: “U zot sollallohu alayhi vasallam maxfiy qiroat qilarmidilar, yoki ovozlarni chiqararmidilar?”

“Ikkisini ham qilardilar. Ba‘zida maxfiy, ba‘zira ovozlarni chiqarib o‘qirdilar”, dedi<sup>3</sup>.

Ummu Hone‘ roziyallohu anho dedi: “Meni o‘z shiyponimda bo‘lib turib Nabiy sollallohu alayhi vasallamning qiroatlarini eshitardim”<sup>4</sup>.

### Yig‘lashlari

Rosululloh sollallohu alayhi vasallam namoz o‘qirdilar. Yig‘ilari tufayli ko‘ksilaridan tegirmon vijirlashiga o‘xshash ovoz chiqardi<sup>5</sup>.

Kusuf namozining ikkinchi rak‘atida sajda oxirida og‘zilaridan qattiq havo chiqarib, yig‘lay boshladilar. Aytardilarki: “Buni men ularning ichidaligimda bo‘lishiga

<sup>1</sup> Buxoriy, 4853, 7540.

<sup>2</sup> Abu Dovud, 1327.

<sup>3</sup> Abu Dovud, 1437. Termiziy, 449.

<sup>4</sup> Nasaiy, 1013. Ibn Moja, 1349. Ahmad, 26894.

<sup>5</sup> Abu Dovud, 904. Nasaiy, 1214. Ahmad, 16317.



va‘da qilmaganding. Biz senga istig‘for aytib turgan holimizda buni bo‘lishiga va‘da qilmaganding”<sup>1</sup>.

Ya‘ni quyosh tutilgan payt, Allohning azobidan panoh so‘rayabtilar. Chunki Alloh taolo: **“Modomiki sen ularning ichida ekansan, Alloh ularni azoblamas. Modomikin, ular istig‘fir aytarkanlar, Alloh ularni azoblamas”**<sup>2</sup>, degan. Rosululloh sollallohu alayhi vasallam shu oyatdagi va‘dani zikr qilyabtilar.

Abdulloh Ibn Mas‘ud roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

Rosululloh sollallohu alayhi vasallam: “Menga Qur‘on o‘qib ber!” dedilar. Men: “Ey Allohning rosuli, Qur‘on sizga nozil bo‘ladi-yu, men uni sizga o‘qib beramanmi?” dedim. Shunda u zot: “Men uni boshqadan eshitishni yaxshi ko‘raman”, dedilar. Shunda Niso surasidan boshlab o‘qidim, toki **“Har bir ummatdan bir guvoh keltirib, seni ularning hammasiga guvoh etib keltirgan chog`imizda hol qandoq bo`lur?!”** ga yetganimda boshimni ko‘tardim yoki yonimdagi bir kishi ishora qildi-da, shunda boshimni ko‘tardim. Qarasam, ko‘z yoshlari oqayotganini ko‘rdim<sup>3</sup>.

U zot sollallohu alayhi vasallam yig‘lagan holda Usmon Ibn Maz‘unning o‘ligini o‘pdilar<sup>4</sup>.

<sup>1</sup> Nasaiy, 1482. Ahmad, 6483.

<sup>2</sup> Anfol surasi, 33-oyat.

<sup>3</sup> Buxoriy, 5050. Muslim, 800.

<sup>4</sup> Termiziy, 989. Ahmad, 3103.



Yana u zot sollallohu alayhi vasallam qizlarining qabri boshida o‘tirdilar. Ikki ko‘zlari esa yosh to‘kardi<sup>1</sup>.

U zot sollallohu alayhi vasallam o‘g‘li Ibrohim vafot etganda yig‘laganlar va aytganlarki: “Ko‘z yosh to‘kadi, qalb mahzun bo‘ladi. Lekin Robbimiz rozi bo‘ladigan narsanigina gapiramiz. Allohga qasamki, ey Ibrohim, biz sen tufayli mahzunmiz”<sup>2</sup>.

### Tavoze‘lari:

Rosululloh sollallohu alayhi vasallam beva-bechoralar bilan birga yurishdan or qilmasdilar. Ularni hojatini chiqarardilar<sup>3</sup>.

U zot ham boshqalardek odam edilar. Kiyimlarini tozalardilar, sut sog‘ardilar, o‘zlariga o‘zlari xizmat qilardilar<sup>4</sup>.

Rosululloh sollallohu alayhi vasallam eski egar va to‘rt dirham turadigan yo turmaydigan bahmal ustida haj qildilar. Va aytdilarki: “**Ey Alloh, (bu) riyo va shon-shuhratsiz qilingan hajdir**”<sup>5</sup>.

U zot arpa noni yoki hidi aynigan ihola<sup>6</sup> yeyishga chaqirilsalar ham ijobat qilardilar<sup>7</sup>.

Sahobalar uchun Rosululloh sollallohu alayhi vasallamdan sevikliroq biror kishi bo‘lmasdi. O‘tirgan

<sup>1</sup> Buxoriy, 1285.

<sup>2</sup> Buxoriy, 1303. Muslim, 2315.

<sup>3</sup> Nasaiy, 1414.

<sup>4</sup> Ahmad, 26194.

<sup>5</sup> Ibn Moja, 2890.

<sup>6</sup> Ihola – non botirib yeyiladigan har qanday yog‘lik narsa.

<sup>7</sup> Termiziy. “Shamoyil”, 334.



yerlarida u zotni ko‘rib qolishsa, u zot yomon ko‘rganlari sabab o‘rinlaridan turishmasdi<sup>1</sup>.

U zot sollallohu alayhi vasallam Jobir roziyallohu anhuni ko‘rgani piyoda kelganlar<sup>2</sup>.

U zotga emizikli bir bola keltirib, tutqazildi. Shunda u ustilariga siyib qo‘ydi. Nabiy sollallohu alayhi vasallam suv chaqirtirib, ustidan quydilar<sup>3</sup>.

U zot sollallohu alayhi vasallam: “Bir tuyuqqa chaqirilsam ham, albatta ijobat qilaman. Agar menga bir tuyuq hadya qilinsa, albatta qabul qilaman”, dedilar<sup>4</sup>.

U zot sollallohu alayhi vasallam: “Meni nasorolar Ibn Maryamni ko‘klarga ko‘tarib maqtangani kabi maqtamanglar. Chunki men U Zotning bandasiman, xolos. Shu bois “Allohning bandasi va rosuli”, denglar”, dedilar<sup>5</sup>.

Yusuf Ibn Abdulloh Ibn Salam roziyallohu anhumo aytadi: “Rosululloh sollallohu alayhi vasallam meni “Yusuf” deb nomladilar, va bag‘rilariga o‘tkizib boshimni siladilar”<sup>6</sup>.

<sup>1</sup> Termiziy, 2754. Ahmad, 12345.

<sup>2</sup> Buxoriy, 5664.

<sup>3</sup> Buxoriy, 6002. Muslim, 286.

<sup>4</sup> Buxoriy, 5178.

<sup>5</sup> Buxoriy, 3445.

<sup>6</sup> Ahmad, 16404.



## Odamlar bilan muomalalari

Rosululloh sollallohu alayhi vasallam eng go‘zal muomalali odam edilar<sup>1</sup>. Biror narsa so‘ralsa, hech qachon “Yo‘q” demaganlar<sup>2</sup>.

Hadya berilsa qabul qilar va unga ham hadya qaytarardilar<sup>3</sup>.

U zot sollallohu alayhi vasallam buzuq so‘zlarni so‘zlamas, fahsh-tabiatli emasdilar. Aytardilarki: “Sizlarning eng yaxshingiz, xulqi go‘zalingizdir”<sup>4</sup>.

Biror marta qo‘llari bilan hech kimni urmaganlar, xoh u ayol bo‘lsin, xoh xizmatchi. Magar Alloh yo‘lida kurashga chiqqanlari mustasno.

U zotga biror kishi ozor bersa hech ham o‘ch olmasdilar. Magar Allohning dini poymol bo‘lsa, Alloh uchun o‘ch olardilar<sup>5</sup>.

U zotga ikki ish o‘rtasida tanlash ixtiyori berilsa gunoh ish bo‘lmasa albatta yengilrog‘ini olardilar. Agar gunoh ish bo‘lsa, undan eng uzoq turadigan kishi edilar<sup>6</sup>.

Bir kuni bir a‘robiy<sup>7</sup> masjidga siydi. Odamlar unga qarshi turishdi. Rosululloh sollallohu alayhi vasallam bo‘lsa: **“Qo‘yinglar, uni bo‘lmanglar”**, dedilar. A‘robiy ishini

<sup>1</sup> Buxoriy, 2820. Muslim, 6033.

<sup>2</sup> Buxoriy, 6034. Muslim, 2311.

<sup>3</sup> Buxoriy, 2585.

<sup>4</sup> Buxoriy, 3559. Muslim, 2321.

<sup>5</sup> Buxoriy, 6853, 3560. Muslim, 2327, 2328.

<sup>6</sup> Buxoriy, 3560. Muslim, 2327.

<sup>7</sup> A‘robiy – sahroviy adab.



bajarib bo‘lgach, u zot bir chelak suv chaqirtirdilar va ustiga quydilar<sup>1</sup>.

Bir kishi Rosululloh sollallohu alayhi vasallam huzurlariga kirishga izn so‘radi. U zot: “Unga izn beringlar! Naqadar yomon qarindosh-a yoki qarindoshning o‘g‘li-ya”, dedilar. U kimgach unga yumshoq so‘zlarni so‘zladilar. Oisha roziyallohu anho: “Ey Allohning rosuli, u haqida shu shu gaplarni gapirib, keyin unga yumshoq gaplar gapirdingiz?” dedilar. U zot: “Ey Oisha, eng yomon odam - uning buzuqligidan saqlanish uchun boshqa odamlar unga yaxshi gapiradigan odamdir<sup>2</sup>.”

Anas roziyallohu anhu aytadi: Rosululloh sollallohu alayhi vasallamga o‘n yil xizmat qildim. Allohga qasamki, biror marta menga “Uff” demadilar. Biror marta “bu ishni nega qilding, buni qilsang bo‘lmasmidi?” demaganlar<sup>3</sup>.

Amr Ibn Os roziyallohu anhu aytadi: “Rosululloh sollallohu alayhi vasallam eng yomon qavmlarga ham ular yoqtirgan yuz bilan muomala qilardilar. Menga ham shunday qilardilar, hatto men eng yaxshi odam bo‘lsam kerak deb o‘ylab qoldim. U zotdan so‘radim: “Ey Allohning rosuli, men yaxshimanmi yo Abu Bakrmi”.

U zot: “Abu Bakr”, dedilar.

<sup>1</sup> Buxoriy, 6025. Muslim, 2327.

<sup>2</sup> Buxoriy, 6054. Muslim, 2327.

<sup>3</sup> Buxoriy, 6038. Muslim, 2309.





- Ey Allohning rosuli, men yaxshimi yo Umar?
- Umar.
- Ey Allohning rosuli, men yaxshimi yo Usmon?
- Usmon

Rosulullohdan so‘raganimda u zot rost aytdilar va qaniydi men shularni so‘ramaganimda”<sup>1</sup>.

Ya‘ni, agar so‘ramaganlarida o‘zlaricha rosululloh uchun eng sevikli inson menman, deb yurardilar.

### Hijoma qildirishlari

Rosululloh sollallohu alayhi vasallam qon oldirdilar. Qon olgan Abu Toyba edi. Unga ikki so‘ egulik berdilar va xojalariga aytgan edilar, undan (kunlik to‘lovini) yengillatishdi. U zot: “Davolanadigan narsalaringizning eng afzali qon oldirishdir”, dedilar<sup>2</sup>.

U zot sollallohu alayhi vasallam uch joylaridan qon oldirdilar: ikki bo‘yin tomirlaridan va yelkalaridan<sup>3</sup>. Qon oluvchiga haqini berardilar<sup>4</sup>.

U zot sollallohu alayhi vasallam oyning o‘n yettinchi, o‘n to‘qqizinchi va yigirma birinchi kuni qon oldirardilar.<sup>5</sup> Aytardilarki: “Kim o‘n yettinchi, o‘n to‘qqizinchi va yigirma birinchi kuni qon oldirsa, har dardga davo bo‘ladi”<sup>6</sup>.

<sup>1</sup> Termiziy, “Shamoil”, 345.

<sup>2</sup> Buxoriy, 5696. Muslim, 1577.

<sup>3</sup> Termiziy, 2051. Ibn Moja, 3483. Ahmad, 12191.

<sup>4</sup> Buxoriy, 2279. Muslim, 1202.

<sup>5</sup> Termiziy, 2051.

<sup>6</sup> Abu Dovud, 3861.



Manashu oxirgi ikki hadis tabiblar ittifoq qilgan narsaga muvofiq keladi. Tabiblar oyning ikkinchi yarmi, yoki uchinchi choragida qon olishni afzal sanashadi. Biroq qon olishga ehtiyoj tugʻilib qolsa, oyning barcha kunlari olinaveradi.<sup>1</sup>

### Ismlari

Rosululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: “Men Muhammadman va men Ahmadman va men mening sababimdan kufr oʻchiriladigan Mahiyman. Men Hashirman. Insonlar ortimda toʻplanishadi. Va men ‘Aaqibman<sup>2</sup>.

Hashir – toʻplovchi. Qiyomat kuni insonlar u zotning huzurida toʻplanib, hisob kitob boshlanishini kutishadi.

Mahiy – oʻchiruvchi.

‘Aqib – orqadan keluvchi. Yaʼni u zot barcha paygʻambarlardan keyin oxirgi paygʻambar boʻlib keladilar.

Yana bir hadisda: “Men Muhammadman, Ahmadman, Muqaffiyman, Hashirman, Nabiyyut-tavbaman va Nabiyyur-rohmaman”, dedilar<sup>3</sup>.

Muqaffiy – ortdan keluvchi. Yaʼni paygʻambarlar soʻnggisi.

Nabiyyut-tavba – tavba paygʻambari.

<sup>1</sup> Ibnul Qoyyim. “Zadul maʼad”, 4/54.

<sup>2</sup> Buxoriy, 3532. Muslim, 2354.

<sup>3</sup> Muslim, 2355.



Nabiyyur-rohma – rahmat payg‘ambari. U zot o‘ta rahmli va mehribon bo‘lganlar. Alloh taolo ham u zotni Ro‘uf va Rohiym deb nomlagan. Ma’nosi – mehribon va rahmli.

### Umrlari

Rosululloh sollallohu alayhi vasallam qirq yoshliklarida payg‘ambar etib jo‘natildilar. Makkada o‘n uch yil da‘vat qildilar. So‘ng hijrat qilishga buyurildilar va Madinaga hijrat qildilar. U yerda o‘n yil turdilar. Keyin oltmish uch yoshlarida vafot etdilar.

U zot sollallohu alayhi vasallam qirq yoshlarining boshida payg‘ambar bo‘lganliklariga ulamolar ijmo‘ qilishgan<sup>1</sup>.

U zot sollallohu alayhi vasallam Madinaga ko‘chganlaridan so‘ng o‘n yil yashaganlariga, payg‘ambarlikdan oldin Makkada qirq yil yashaganlariga ulamolar ittifoq qilishgan. U zot payg‘ambar bo‘lganlaridan keyin Makkada qancha turganlaridagina ulamolar ixtilof qilishgan. To‘g‘risi, u zot o‘n uch yil turganlar. Shunda u zot sollallohu alayhi vasallamning umrlari oltmish uch yil bo‘ladi.

### Vafotlari

#### Vafot kunlari

Musulmonlar Abu Bakr roziyallohu anhu imomligida bomdod namozini o‘qiyotganlarida Rosululloh sollallohu alayhi vasallam Oisha roziyallohu anho hujrasining pardasini ochdilar. Ular namozda safda turganlarida u zot ularga qarab

<sup>1</sup> Muqriy, "Imta'ul asma", 1/64.



turardilar. U zotning yuzlari huddi mus‘haf varog‘i kabi go‘zal edi. Keyin u zot sollallohu alayhi vasallam tabassum qilib kuldilar. Shunda Abu Bakr Rosululloh namozga chiqadilar deb o‘ylab, safga qo‘shilish uchun orqaga tisarildi. Musulmonlar Rosulullohni ko‘rib hursandliklaridan namozlaridan chiqib ketay deyishdi. Rosululloh sollallohu alayhi vasallam ularga qo‘llari bilan: “Namozingizni o‘qing”, deb ishora qildilar. Keyin hujraga kirib ketdilar va pardani tushirdilar<sup>1</sup>.

Rosululloh sollallohu alayhi vasallam Oishaga: “Ey Oisha, Xaybarda yegan taomimni og‘rig‘ini hali ham his qilyabman. Anashu zahar tufayli yurak tomirimni uzilganini his qilyabman”, dedilar<sup>2</sup>.

Ya‘ni u zot sollallohu alayhi vasallamga Xaybarda bir yahudiy ayol zaharlangan taom beradi. U zot o‘sha taomni nazarda tutyabtilar.

Nabiy sollallohu alayhi vasallam Fotima roziyallohu anhani chaqiribdilar. Fotima: “Oh, alam tortgan otaginam!” dedi. Shunda u zot unga: “Bugundan keyin otangga alam bo‘lmaydi”, dedilar. U zot unga bir narsani pichirlab aytgandilar yig‘ladi. Keyin bir narsani pichirlab aytgandilar u kuldi. Shunda undan bu haqida so‘rashdi. Aytadiki: “Nabiy sollallohu alayhi vasallam mana shu kasalliklari tufayli vafot

<sup>1</sup> Buxoriy, 4448. Muslim, 419.

<sup>2</sup> Buxoriy, 4428.



etishlarini pichirlaganlarida yigʻladim. Keyin menga pichirlab, u zotga ergashadigan eng avvalgi ahli oilasi men ekanimni aytganlarida kuldim”<sup>1</sup>.

U zot sollallohu alayhi vasallam musulmonlarni namozni muhofaza qilishga buyurdilar. “Namozni, namozni (muhofaza qiling). Va qoʻlingizda mulk boʻlganlarni (haqlariga rioya qiling)”, dedilar<sup>2</sup>.

U zotning huzurlariga Abdurahmon Ibn Abu Bakr kirdi. Qoʻlida misvak bor edi. Oisha boʻlsa u zot sollallohu alayhi vasallamni tirab turgandi va unga qarayotganlarini koʻrdi. U zot misvak qilmoqchi boʻlganlarini bilib, “Uni olib beraymi?” dedi. U zot sollallohu alayhi vasallam boshlari bilan ishora qilib “ha” degandilar, uni oldi. U zotning ogʻriqlari kuchayib ketdi. Oisha roziyallohu anho: “Yumshatib beraymi?” degandi, boshlari bilan “ha” deb ishora qildilar. Yumshatib bergandilar, u zot sollallohu alayhi vasallam u bilan misvak qildilar. Oldilarida bir idishda suv bor edi. U zot qoʻllarini suvga tiqib yuzlariga surtardilar. Aytardilarki: “Allohdan oʻzga iloh yoʻq. Albatta, oʻlimning bir mastliklari bor”. U zotning boshlari Oishaning sonida turar, shu payt xushlaridan ketib qoldilar. Oʻzlariga kelgach koʻzlarini uy shiftiga qaratib, qoʻllarini koʻtardilar: **“Alloh neʻmat bergan nabiyalar, siddiqlar, shahidlar va solihlar bilan birga**<sup>3</sup>. Ey Alloh meni magʻfirat

<sup>1</sup> Buxoriy, 4433.

<sup>2</sup> Ibn Moja, 1625. Nasaʼiy, 7057. Ahmad, 26483.

<sup>3</sup> Niso surasi, 69-oyat.



qil, menga rahm qil. Meni Hamrohga qo‘sh. Ey Alloh, Oliy Hamrohga...”, dedilar va jonlari olingunicha shuni takrorladilar. Va qo‘llari og‘ib tushdi. Boshlari bo‘lsa Oishaning bag‘rida edi<sup>1</sup>.

U zot vafot qilgach, Fotima: “Duosini Robbisi eshitgan oh otaginam! Borar joyi Firdavs jannati bo‘lgan oh otaginama! Jabroilga azangizni aytamiz, oh otaginama!” dedi<sup>2</sup>.

Rosululloh o‘lganlarini insonlar eshitgach Umar o‘rnidan turdi va: “Allohga qasamki, Rosululloh o‘lmagan. Albatta Alloh u zotni turgizadi. (O‘lgan degan) kishini qo‘l va oyoqlarini chopaman!” dedi.

Shunda Abu Bakr roziyallohu anhu Sunhdagi uyidan otida kelib tushdi va masjidga kirdi. Biror kimsaga gapirmay, Nabiy sollallohu alayhi vasallamni istab, to‘g‘ri Oishaning uyiga kirdi. U zot sollallohu alayhi vasallam qizil yo‘lli matoga o‘ralgan edilar. U zotning yuzlarini ochdi va egilib o‘pdida, yig‘ladi. Aytdiki: “Otam sizga fido bo‘lsin, ey Allohning payg‘ambari! Alloh sizga ikki o‘limni jamlamaydi. Sizga bitilgan o‘limni esa, o‘lib bo‘ldingiz”.

So‘ngra tashqariga chiqib aytdi: “Ey qasam ichuvchi, shoshilma”. Abu Bakr gapira boshlagach Umar o‘tirdi. Abu Bakr Allohga hamd-u sano aytdi-da: “Kim Muhammad sollallohu alayhi vasallamga ibodat qilgan bo‘lsa u zot o‘ldi.

<sup>1</sup> Buxoriy, 4437, 4438, 4440, 4445, 4449.

<sup>2</sup> Buxoriy, 4462.



Kim Allohga ibodat qilgan bo‘lsa, Alloh tirikdir, o‘lmaydi. “Albatta, siz ham o‘luvchisiz, ular ham o‘luvchidir<sup>1</sup>”. “Muhammad bir rosul xolos. Undan avval ham rosullar o‘tgan. Agar u o‘lsa yoki o‘ldirilsa ortingizga o‘girilib ketasizmi? Kim ortiga o‘girilib ketsa hargiz Allohga biror zarar bermas. Yaqinda Alloh shukr qiluvchilarni mukofotlaydi”<sup>2</sup>.

Odamlar qattiq yig‘lashdi<sup>3</sup>.

Umar dedi: “Allohga qasamki, Abu Bakr tilovat qilgan narsani eshitishim bilan o‘zimdan ketayozdim, hatto oyoqlarim meni ko‘tarolmay qoldi. O‘qiganini eshitganimda yerga yiqilib qoldim. Bildimki, Nabi sollallohu alayhi vasallam o‘libdilar”<sup>4</sup>.

Ibn Abbos roziyallohu anhumo aytadi: “Allohga qasamki, Abu Bakr roziyallohu anhu ushbu oyatni tilovat qilmagunicha, odamlarning hammasi xuddi Alloh buni nozil qilganini bilishmagan-u, buni undan endi qabul qilib olgandek bo‘lishdi. Odam zoti borki, uning o‘shani tilovat qilayotganini eshitar edim”<sup>5</sup>.

### U zot sollallohu alayhi vasallamni yuvish

Chorshanba kuni odamlar Abu Bakr roziyallohu anhuning xalifaligiga bay‘at berib bo‘lishgach, Rosululloh

<sup>1</sup> Zumar surasi, 30-oyat.

<sup>2</sup> Oli Imron, 144-oyat.

<sup>3</sup> Buxoriy, 1241, 3667, 3668.

<sup>4</sup> Buxoriy, 4454.

<sup>5</sup> Buxoriy, 4454.



sollallohu alayhi vasallamni yuvish uchun kerakli narsalarni keltirishdi. U zotni yuvmoqchi bo‘lishgach aytishdi: “Allohga qasamki, xuddi o‘liklarimiz kiyimini yechgandek Rosululloh sollallohu alayhi vasallamning kiyimlarini ham yechamizmi yoki kiyimlari ustidan yuvamizmi, bilmaymiz”.

Ular shunday tortishib turishgach, Alloh ularga uyquni tashladi, hatto birortalari qolmay uxlab qolishdi. Keyin ularga uy tomondan bir gapiruvchi gapirdi: “Nabiy sollallohu alayhi vasallamni kiyimlari ustida turgan holda yuvinglar”. Ular gapirgan kim ekanini bilishmasdi. Ular turdilar, Rosulullohni kiyimlari ustidan yuvdilar. Kiyimlari tepasidan suv quyishar va u zotning ko‘ylaklari bilan ishqalashar edi, qo‘llari bilan emas.

U zotni Aliy, Abbos, Fazl Ibn Abbos, Qusam Ibn Abbos, Usoma Ibn Zayd va u zotning ozod qilgan mavlolari Shuqron g‘usl qildirdi. Aliy roziyallohu anhu u zotni ko‘ksilari tomon suyadi. Abbos, Fazl va Qusamlar birga u zotni aylantirishardi. Usoma Ibn Zayd bilan Shuqron ustilaridan suv quyib turishardi. Aliy roziyallohu anhu esa u zotni yuwardi va aytardi: “Ota – onam sizga fido, tirikligingizda ham o‘lganingizda ham naqadar xushbo‘ysiz”<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> “Siyrotu Ibn Hishom”, 2/662.





## Kafanlash

U zot yuvintirilgach, paxtadan boʻlgan uchta yamaniy-sahuliy oq matoga kafanlandilar. Ularning ichida koʻylak ham, salla ham yoʻq edi<sup>1</sup>.

## Janoza

Chorshanba kuni u zotni tayyorlab boʻlishgach, uylaridagi yotoqlariga qoʻyishdi. Nabiy sollallohu alayhi vasallamni qayerga koʻmishni bilishmasdi. Shunda Abu Bakr roziyallohu anhu: “Nabiy sollallohu alayhi vasallam: “Paygʻambar faqatgina oʻlgan yeriga koʻmiladi”, deganlarini eshitganman”, dedilar. Shunda u zotning yotoqlarini surib turib, tagidan Abu Talha qabr kavlati.

Keyin odamlar guruh-guruh boʻlib kirib u zot sollallohu alayhi vasallamga janoza oʻqidilar. Erkaklar oʻqib boʻlishgach, ayollar kirgizildi. Ayollar oʻqib boʻlishgach, bolalar kirgizildi. Rosululloh sollallohu alayhi vasallamning janozalariga biror kishi imomlikka oʻtmadi<sup>2</sup>.

## Koʻmish

Rosululloh sollallohu alayhi vasallam chorshanba kuni yarim kechasi dafn qilindilar. U zotning qabriga Aliy Ibn Abu Tolib, Fazl Ibn Abbos, Qusam Ibn Abbos va Shuqron tushishgandi<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> Buxoriy, 1264. Muslim, 941.

<sup>2</sup> Ibn Moja, 1628. “Siyрати Ibn Hishom”, 2/663.

<sup>3</sup> Ibn Moja, 1628. Ahmad, 24790. “Siyрати Ibn Hishom”, 2/663.



U zot sollallohu alayhi vasallam dafn qilingach, Fotima alayhassalom: “Ey Anas, Rosululloh sollallohu alayhi vasallamning ustlaridan tuproq to‘kib ko‘nglingiz orom topdimi?!” dedi<sup>1</sup>.

### Qoldirgan meroslari

Rosululloh sollallohu alayhi vasallam na dinor, na dirham, qo‘y ham tuya ham, cho‘riyu-qullar ham meros qilib qoldirmadilar. Magar minadigan bir hachirlari, silohlari va miskinlarga sadaqa qilgan yerlari qolgandi<sup>2</sup>.

Rosululloh sollallohu alayhi vasallam aytganlar: “Merosxo‘rlarim dinorni ham, dirhamni ham taqsimlab olishmaydi. Ayollarim nafaqasi va ishchilarimning harajatidan ortgani hammasi sadaqa”<sup>3</sup>.

Fotima Binti Rosululloh sollallohu alayhi vasallam Abu Bakr roziyallohu anhudan u zotdan qolgan Madinadagi va Fadakdagi yer va Xaybar o‘ljasining beshdan biri bo‘lgan merosni so‘rab odam yubordilar. Abu Bakr dedi: “Rosululloh sollallohu alayhi vasallam: “Meros qoldirmaymiz. Nimaiki qoldirgan bo‘lsak, sadaqadir. Muhammad oilasi bo‘lsa bu moldan yeydi”, dedilar.

Ya‘ni, bu Allohning moli, undan faqat yeyish uchungina olishlari mumkin.

<sup>1</sup> Buxoriy, 4462.

<sup>2</sup> Buxoriy, 4461. Muslim, 1635.

<sup>3</sup> Buxoriy, 2776. Muslim, 1760.



Abu Bakr roziyallohu anhu so‘zida davom etib: “Allohga qasamki, Rosululloh davrlarida sadaqa hoida qandoq turgan bo‘lsa, undan biror narsani o‘zgartirmayman. Ular borasida faqatgina Rosululloh qilgan ishni qilaman”, dedi. Abu Bakr roziyallohu anhu Fotima roziyallohu anhoga biror narsa berishdan bosh tortdi<sup>1</sup>.

### Rosululloh sollallohu alayhi vasallamni tushda ko‘rish

Rosululloh sollallohu alayhi vasallam: “Kim meni tushda ko‘rsa, haqiqatda meni ko‘ribdi. Chunki shayton mening ko‘rinishimga kirolmaydi”, deganlar<sup>2</sup>.

Bir kishi Ibn Abbosga “Men Rosululloh sollallohu alayhi vasallamni tushimda ko‘rdim”, dedi. Ibn Abbos unga: “Albatta, Rosululloh sollallohu alayhi vasallam: “Albatta, shayton menga o‘xshab olishga qodir emas. Kim meni tushda ko‘rsa, haqiqatda meni ko‘ribdi”, deganlar. Sen tushingda ko‘rgan odamingni bizga sifatlab bera olasanmi?” dedi.

U: Ha, jismi va semizligi jihatidan o‘rtacha kishini ko‘rdim. Oqqa moyil bug‘doyrang, kulishlari chiroyli, ikki ko‘zi surmali, ko‘rkam yuzli, soqoli bu yerdan bu yergacha to‘ldirib turardi, hatto bo‘yinlarini to‘ldiray derdi.

Ibn Abbos unga: “Agar u zotni uyg‘oqlikda ko‘rganingda ham bundan ortiq sifatlay olmasding”, dedi<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> Buxoriy, 3711, 3712, 3240. Muslim, 1759.

<sup>2</sup> Buxoriy, 110. Muslim, 2266.

<sup>3</sup> Ahmad, 3410. Termiziy. “Shamoil”, 412.



## Uchinchi qism

### U zot sollallohu alayhi vasallamning xususiyatlari

#### Payg‘ambarliklarining umumiy ekanligi

Alloh azza va jalla har bir payg‘ambarni o‘z qavmigagina jo‘natgan. Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallamni esa, insonlar-u jinlarga ommatan jo‘natgan. Har bir payg‘ambar ummatiga yetkazganligi uchun savob olsa, Nabiyyimiz sollallohu alayhi vasallam ham qiyomatgacha har bir ummatlariga yetkazganlik savobini oladilar. Alloh taolo aytadi: **“Biz seni barcha odamlarga faqat xushxabarchi va ogohlantirguvchi qilib yubordik”<sup>1</sup>.**

Boshqa bir oyatda: **“Sen: “Ey odamlar, albatta, men sizlarning barchangizga Allohning payg‘ambaridirman”, deb ayt”<sup>2</sup>,** deyiladi.

Yana bir oyatda: **“Olamlarga ogohlantiruvchi bo`lsin uchun bandasiga Furqonni nozil qilgan Zot barakotli, ulug`dir”**, deyilgan.

Rosululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: **“Payg‘ambarlardan olti narsa bilan afzal qilindim:**

- Jamlovchi kalimalar berildi,
- Bir oylik masofadan dushmanga qo‘rquv berildi,
- Menga g‘animat-o‘ljalar halol qilindi. Mendan avval biror kimga halol qilinmagandi.

<sup>1</sup> Saba surasi, 28-oyat.

<sup>2</sup> A‘rof surasi, 158-oyat.



- Menga yer poklovchi va masjid qilib berildi. Ummatimda birortasiga namoz vaqti yetsa, (istagan yerida) o‘qiyversin.
- Nabiyilar o‘z qavmigagina jo‘natilardi. Men esa, butun insoniyatga jo‘natildim
- Men bilan payg‘ambarlik tugatiladi<sup>1</sup>.

### So‘nggi payg‘ambar ekanliklari

Alloh taolo Nabiyimiz sollallohu alayhi vasallamga bergan xususiyatlaridan biri, u zotning payg‘ambarliklari barcha payg‘ambarlikka xotimadir.

Alloh taolo aytadi: “Lekin (Muhammad) Allohning rosuli va payg‘ambarlarning so‘nggisidir”<sup>2</sup>.

Ya‘ni u zot bilan payg‘ambarlik tugaydi. Undan keyin qiyomatga qadar boshqa payg‘ambar chiqmaydi.

Nabiy sollallohu alayhi vasallam aytganlar: “Hali ummat ichidan o‘ttizta kazzoblar chiqadi. Hammasi payg‘ambarlikni da‘vo qiladi. Men payg‘ambarlarning so‘nggisiman va mendan keyin payg‘ambar yo‘qdir”<sup>3</sup>.

Endi kim u zotdan keyin payg‘ambarlikni da‘vo qilib chiqsa, uning da‘vosi botildir va uning hech qanday dalili yo‘qdir. Unday odamning kofir ekanligida ulamolar ijmo‘ qilishgan<sup>4</sup>.

<sup>1</sup> Buxoriy, 335. Muslim, 521, 523.

<sup>2</sup> Ahzob surasi, 40-oyat.

<sup>3</sup> Abu Dovud, 4252. Termiziy, 2219.

<sup>4</sup> Qozi Iyoz. “Ashshifa bita‘rifi huquqil mustafo”, 2/609-610.



Qozi Iyoz rohimahulloh aytadi: “Nabiy sollallohu alayhi vasallam o‘zlarining so‘nggi payg‘ambar ekanliklarini, undan keyin payg‘ambar yo‘qligini xabar qilganlar. Alloh taolo tomonidan ham, u zotning payg‘amblarlar xotimasi ekanliklarini xabar qilganlar. Va u zot barcha odamlarga jo‘natilganlar. Butun ummat manashu gaplarni zohiriga ko‘ra qabul qilishga ijmo‘ qilgan. Bu gaplardan tushunilgan narsani hech qanday ta‘vilsiz va xoslashlarsiz qabul qilishgan”<sup>1</sup>.

Ibn Kasir rohimahulloh aytadi: “Bu borada hadislar ko‘pdir. Muhammad alayhissalomning jo‘natilishlari Allohning bandalariga bo‘lgan rahmatidir. So‘ng u zotni so‘nggi payg‘ambar bo‘lishlik bilan yanada sharaflantirdi va dinni mukammal qilib berdi. Alloh taolo kitobida va Rosululloh sollallohu alayhi vasallam mutavotir sunnatlarida aytishadiki: “U zotdan keyin payg‘ambar yo‘q. U zotdan keyin bu maqomni da‘vo qilib chiqqan har bir kishi bilsinki, u yolg‘onchi, to‘qimachi va dajjoldir. Garchi u g‘ayrioddiy ishlarni ko‘rsatib ko‘zbo‘yamachilik qilsa ham va har xil sehrlarni ko‘rsatsa ham adashgandir va boshqalarni ham adashtiruvchidir”<sup>2</sup>.

### **U zotni nabiy va rosul deb chaqirish:**

Alloh taolo Nabiyyimiz sollallohu alayhi vasallamni Qur‘onda biror marta ismi bilan chaqirmagan. Faqatgina nabiylik va rosullik sifatleri bilan u zotga xitob qilgan. Bu narsa

<sup>1</sup> Qozi Iyoz. “Ashshifa bita‘rifi huquqil mustafo”, 2/610.

<sup>2</sup> “Tafsir Ibn Kasir”, 6/430-431.



u zotni sharafini yanada ko‘tarish uchundir. Boshqa payg‘ambarlarni esa, ismi bilan nido qilgan. Alloh taolo aytadi:

**“Ey payg‘ambar, kufrga oshiqadiganlardan xafa bo‘lma!”<sup>1</sup>**

**“Ey payg‘ambar, Alloh senga kifoyadir”<sup>2</sup>**

**“Ey Odam, sen va ayoling jannatda yasha”<sup>3</sup>**

**“Ey Nuh, biz tomonimizdan salomatlik bilan tush, deyildi”<sup>4</sup>**

**“Ey Muso, men seni odamlar ichidan Payg`ambarligim va gaplashishim ila tanlab oldim”<sup>5</sup>**

**“Ey Ibrohim. Haqiqatda, tushni tasdiqlading”<sup>6</sup>**

U zotning ismlarini tanitish uchun zikr qilgan payti esa, yonida rosullik zikrini qo‘shib aytdi. Alloh taolo aytadiki:

**“Muhammad ham bir Payg`ambar, xolos”<sup>7</sup>.**

**“Muhammad Allohning rosulidir”<sup>8</sup>.**

U zotni Ibrohim alayhissalom bilan birga zikr qilganda ham, Ibrohim alayhissalomni ismi bilan aytib u zotni laqabi bilan zikr qildi. Aytadiki: **“Ibrohimga odamlarning eng haqlisi unga ergashganlar va mana bu nabiyydir”<sup>9</sup>.**

<sup>1</sup> Moida surasi, 41-oyat.

<sup>2</sup> Anfol surasi, 64-oyat.

<sup>3</sup> Baqara surasi, 35-oyat.

<sup>4</sup> Hud surasi, 48-oyat.

<sup>5</sup> A'rof surasi, 144-oyat.

<sup>6</sup> Soffat surasi, 104-105-oyatlar.

<sup>7</sup> Oli Imron surasi, 144-oyat.

<sup>8</sup> Fath surasi, 29-oyat.

<sup>9</sup> Oli Imron surasi, 68-oyat.



## Ismi bilan chaqirishning haromligi

Alloh taolo u zotga bergan xususiyatlaridan yana biri, ummatlariga u zotni ismi bilan chaqirishni harom qilganidir. Boshqa paygʻambarlarda bunday emas. Ularning ummatlari paygʻambarlarini ismi bilan chaqiraverishgan<sup>1</sup>.

Alloh taolo Muso alayhissalom qavmi aytgan gapni keltirib aytadi: **“Ular: “Ey Muso, Robbingga biz uchun duo qil”, dedilar”<sup>2</sup>.**

Boshqa bir oyatda: **“Havoriylar: “Ey, Iyso ibn Maryam”, deyishdi”<sup>3</sup>.**

Bu ummatga esa Alloh taolo quyidagicha aytgan: **“(Ey moʻminlar), paygʻambarni chaqirishni oʻrtalaringizda bir-birlaringizni chaqirish kabi qilmangizlar”<sup>4</sup>.**

Yaʼni, u zotning ismini aytib “Ey Muhammad yoki Ey Abdullohning oʻgʻli”, deb chaqirmanglar. Aksincha, u zotni sharaflab “Ey Allohning paygʻambari, ey Allohning rosuli”, deb chaqiringlar<sup>5</sup>.

## Jamlovchi kalimalar berilgan ekanligi

Alloh azza va jalla Nabiyyimiz alayhissalomni jamlovchikeng maʼnoli soʻzlar bilan yuborgandir. Gapirsalar oʻta muxtasar gapirardilar. Muxtasar – soʻzlari kam, maʼnosi esa koʻp boʻlgan gap. Gaplarining fashohatli va balogʻatli ekanida

<sup>1</sup> Suyutiy. “Xosoisul kubro”, 2/324-325

<sup>2</sup> Aʼrof surasi, 134-oyat.

<sup>3</sup> Moida surasi, 112-oyat.

<sup>4</sup> Nur surasi, 63-oyat.

<sup>5</sup> “Tafsir Ibn Kasir”, 6/89.





butun arablardan o‘tib ketdilar<sup>1</sup>. Oz so‘zlasalarda pur ma‘noli gapirardilar<sup>2</sup>.

U zot sollallohu alayhi vasallam aytadilar: “Boshqa payg‘ambarlardan olti narsa bilan afzal qilindim:

- Menga jamlovchi kalimalar berildi.
- Bir oylik masofadan dushmanga qo‘rquv berildi.
- G‘anima (o‘lja) halol qilindi. Mendan avval hech kimga halol bo‘lmagandi.
- Yer yuzi poklovchi va masjid qilib berildi. Ummatimdan qaysi bir kishiga namoz vaqti yetsa (o‘sha yerda) o‘qiyversin.
- Payg‘ambarlar o‘z qavmigagina jo‘natilardi. Men esa, barcha xalqlarga jo‘natildim.
- Men bilan payg‘ambarlik tugaydi”<sup>3</sup>.

### Qo‘rquv bilan qo‘llab quvvatlanganliklari

Alloh taolo Nabiyimizni boshqa payg‘ambarlardan xoslagan jihatlaridan yana biri, dushmanlar qalbiga bir oylik masofada turib qo‘rquv, xafvning tushushidir. Shu tariqa Alloh taolo Nabiyimiz sollallohu alayhi vasallamga yordam bergan. Dushmanlar qo‘rquvdan u zotning qarshisiga chiqishmasdi<sup>4</sup>.

<sup>1</sup> “Munyatul sul fiy tafzilil rosul”, 35.

<sup>2</sup> Ibn Hajar. “Fathul borij”, 13/247.

<sup>3</sup> Buxoriy, 335. Muslim, 521, 523.

<sup>4</sup> Ibnul Asir. “Jamiul usul”, 8/530.



Masofaning bir oy deb aytilishi, bu masofa u zot va dushmanlari o‘rtasidagi eng uzoq masofa bo‘lgani sabablidir. Bu xususiyat u zotda mutlaq namoyondir. Garchi askarlarsiz yolg‘iz o‘zlari bo‘lsalar ham shunday bo‘lgan. Bu xususiyat u zotdan keyin ummatlarida ham bo‘ladimi degan masalada ehtimol bor<sup>1</sup>.

U zot sollallohu alayhi vasallam aytadilar: “Mendan avvalgilarga berilmagan besh narsa menga berildi:

- Bir oylik masofadan dushmanga qo‘rquv berildi.
- Yer yuzi poklovchi va masjid qilib berildi. Ummatimdan qaysi bir kishiga namoz vaqti yetsa (o‘sha yerda) o‘qiyversin.
- G‘anima (o‘lja) halol qilindi. Mendan avval hech kimga halol bo‘lmagandi.
- Shafoat berildi.
- Payg‘ambarlar o‘z qavmigagina jo‘natilardi. Men esa, barcha insonlarga jo‘natildim”<sup>2</sup>.

### Kitoblari saqlangandir

Alloh taolo Nabiyimiz sollallohu alayhi vasallamga bergan xususiyatlaridan yana biri, u zotning mo‘jizalaridan hisoblangan Qur‘oni Karim qiyomatga qadar boqiy qolishidir. Boshqa payg‘ambarlarning mo‘jizalari esa tugab bitgandir<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> Ibn Hajar. “Fathul boriy”, 1/437.

<sup>2</sup> Buxoriy, 335. Muslim, 521.

<sup>3</sup> “Munyatul sul fiy tafzilil rosul”, 35.



Alloh taolo aytadi: **“Albatta, Zikrni Biz nozil qildik va, albatta, uni Biz muhofaza qilurmiz.”**

Ya‘ni Biz uni turli botil narsalar unga qo‘shilib ketishidan, yoki uning biror qismi kamayib, hukmlari, hududlari va farzlari yo‘qolib ketishidan saqlaymiz<sup>1</sup>.

### **Qiyomat kuni shafolat berilgandir**

Qiyomat kuni hisob boshlanishi uchun shafotchi bo‘lishlari ham u zot sollallohu alayhi vasallamning xususiyatlaridan sanaladi<sup>2</sup>.

U zot sollallohu alayhi vasallam aytadilar: “Mendan avvalgilarga berilmagan besh narsa menga berildi:

- Bir oylik masofadan dushmanga qo‘rquv berildi.
- Yer yuzi poklovchi va masjid qilib berildi. Ummatimdan qaysi bir kishiga namoz vaqti yetsa (o‘sha yerda) o‘qiyversin.
- G‘anima (o‘lja) halol qilindi. Mendan avval hech kimga halol bo‘lmagandi.
- Shafolat berildi.
- Payg‘ambarlar o‘z qavmigagina jo‘natilardi. Men esa, barcha insonlarga jo‘natildim”<sup>3</sup>.

"Rosululloh sollallohu alayhi vasallamga go‘sh t keltirildi. U zotga qo‘l qismi uzatildi. U zotga shu yoqardi. Go‘sh t dan bir

<sup>1</sup> "Tafsiru Tabariy", 17/68.

<sup>2</sup> Suyutiyy. "Xosoisul kubro", 2/378.

<sup>3</sup> Buxoriy, 335. Muslim, 521.



tishlam tishladilar. Keyin shunday dedilar: «Men qiyomat kuni insonlarning sayyidiman. Bu nimadanligini bilasizlarmi? Avvalgi-yu oxirgi insonlar bir sayhonlikda jamlanishadiki, jarchi ularga eshittira oladi, ko‘z ularni qamrab oladi. Quyosh yaqinlashadi. Odamlarga toqatlari yetmaydigan, ular ko‘tara olmaydigan g‘am-tashvish yetadi.

Odamlar: «Sizlarga nimalar yetganini koirmaysizlarmi?! Robbingizning oldida sizlarni kim shafolat qiladi, qaramaysizlarmi?!» deyishadi. Shunda odamlar bir-biriga: "Sizlar Odamga borishingiz kerak", deyishadi.

Ular Odam alayhissalomga kelib, unga: "Siz bashariyatning otasisiz. Sizni Alloh O‘z qo‘li bilan yaratgan. Sizga ruhidan puflagan. Farishtalarga buyurgan, ular sizga sajda qilishgan. Bizni Robbingiz oldida shafolat qiling! Nima ahvoldaligimizni ko‘rmayapsizmi? Bizlarga nimalar yetganini ko‘rmayapsizmi?" deyishadi. Odam: "Bugun Robbim shunday g‘azablanganki, avval ham bunday g‘azablanmagan, keyin ham hargiz bunday g‘azablanmaydi. U meni daraxt(mevasini yeyish)dan qaytargan edi. Men Unga osiy bo‘ldim. O‘zim bilan o‘zimman! Mendan boshqaning oldiga boringlar. Nuhning oldiga boringlar-chi", deydi.

Ular Nuhning oldiga kelib, "Ey Nuh! Siz yer yuzi ahliga yuborilgan birinchi rosulsiz. Alloh sizni “sershukr banda” deb atagan. Robbingiz oldida bizni shafolat qiling! Nima ahvoldaligimizni ko‘rmayapsizmi?» deyishadi. U: "Robbim



azza va jalla bugun shunday gʻazablanganki, avval ham bunday gʻazablanmagan, keyin ham hargiz bunday gʻazablanmaydi. Mening (mustajob) duoim bor edi, u bilan qavmimni duoibad qilib boʻlganman. Oʻzim bilan oʻzimman! Mendan boshqaning oldiga boringlar. Ibrohimning oldiga boringlar-chi", deydi.

Ular Ibrohimning oldiga borib, "Ey Ibrohim! Siz Allohning nabiyi va yer ahlidan (tanlagan) xalilisiz. Robbingiz oldida bizni shafolat qiling! Nima ahvoldaligimizni koʻrmayapsizmi?" deyishadi. U ularga: "Robbim bugun shunday gʻazablanganki, avval ham bunday gʻazablanmagan, keyin ham hargiz bunday gʻazablanmaydi. Men uch marta yolgʻon gapirib qoʻyganman <sup>1</sup>. Oʻzim bilan oʻzimman! Mendan boshqaning oldiga boringlar. Musoning oldiga boringlar-chi", deydi.

Ular Musoning oldiga kelib, "Ey Muso! Siz Allohning rasulisiz. Allah sizni Oʻz risolati va Kalomi bilan odamlardan afzal qilgan. Robbingiz oldida bizni shafolat qiling! Nima ahvoldaligimizni koʻrmayapsizmi?" deyishadi. U: "Robbim bugun shunday gʻazablanganki, awal ham bunday gʻazablanmagan, keyin ham hargiz bunday gʻazablanmaydi. Men bir jonni oʻldirganman. Uni oʻldirishga buyurilmagan edim. Oʻzim bilan oʻzimman! Mendan boshqaning oldiga boringlar. Musoning oldiga boringlar-chi", deydi.

<sup>1</sup> Yaʼni odamlar nazdida yolgʻon hisoblanadigan narsa. Aslida esa ular yolgʻon emasdi.



Ular lysoning oldiga kelib, "Ey lyso! Siz Allohning rosulisiz, Maryamga ilqo qilgan kalimasisiz, O'zidan bir ruhsiz! Beshikda chaqaloqligingizdayoq odamlarga gapirgansiz. Bizni shafolat qiling! Nima ahvoldaligimizni ko'rmayapsizmi?" deyishadi. lyso: "Robbim bugun shunday g'azablanganki, awal ham bunday g'azablanmagan, keyin ham hargiz bunday g'azablanmaydi - biror gunohni zikr qilmadilar. - O'zim bilan o'zimman! Mendan boshqaning oldiga boringlar. Muhammad sollallohu alayhi vasallamning oldiga boringlar-chi", deydi.

Ular Muhammad sollallohu alayhi vasallamning oldiga kelib, "Ey Muhammad! Siz Allohning Rosulisiz, nabiylarning xotimisiz. Alloh sizning oldingi va keyingi gunohlaringizni mag'firat qilib qo'ygan. Robbingiz oldida bizni shafolat qiling! Nima ahvoldaligimizni ko'rmayapsizmi?" deyishadi. Shunda men yurib, Arshning ostiga boraman. Robbim azza va jallaga sajda qilgan holda yiqilaman. Keyin Alloh O'z sha'nidagi mendan oldin hech kimga ilhom qilmagan maqtovlar va go'zal sanolarni menga ilhom qiladi. Shunda: "Ey Muhammad! Boshingni ko'tar. So'ra, senga ato etiladi. Shafolat qil, shafoting qabul qilinadi", deyiladi. Men boshimni ko'tarib, "Ummatim, ey Robbim! Ummatim, ey Robbim! Ummatim, ey Robbim!" deyman. Shunda: "Ey Muhammad! Ummatlaringdan bo'ynida hisob-kitobi bo'lmaganlarini jannat darvozalarining o'ng darvozasidan kiritgin!" deyiladi.



Holbuki, ular jannatning boshqa darvozalarida ham odamlarga sherikdirlar. Soʻngra: "Jonim qoʻlida bolgan Zotga qasamki, jannat (darvozasining) ikki tavaqasining orasi Makka bilan Himyar yoki Makka bilan Busro orasichadir", dedilar<sup>1</sup>.

Himyar - Yamandagi qadimiy oʻlka. Busro - Shomdagi shahar. Makka bilan Himyarning orasi ham, Makka bilan Busroning orasi ham taxminan 1200-1300 kilometr keladi.

**Bundan tashqari boshqa paygʻambarlar qolib Nabiyyimiz sollallohu alayhi vasallamga beriladigan shafotlardan quyidagilardir:**

### 1) Jannat eshigini ochishdagi shafot

Rosululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: Men Jannatga shafot qiladigan odamlarning eng avvalgisiman. Va men ergashuvchilari eng koʻp boʻlgan paygʻambarman"<sup>2</sup>.

Yana aytadilar: "Qiyomat kuni jannat eshigiga kelamanda, uni taqillataman. Qoʻriqchi: "Sen kimsan?" deb soʻraydi. "Muhammadman", deyman. U: "Senga (ochishga) buyurilganman. Sendan avval hech kimga ochmayman", deydi"<sup>3</sup>.

**2) Baʼzi qavmlarning jannatga hisob-kitobsiz kirishlari uchun shafot**

<sup>1</sup> Buxoriy, 4712. Muslim, 193.

<sup>2</sup> Muslim, 196.

<sup>3</sup> Muslim, 197.



Rosululloh sollallohu alayhi vasallam aytadilar: **“Ummatimdan jannatga bir guruhi kiradi. Ular yetmish mingta bo‘lishadi. Yuzlari oy nuridek porlab turadi”**.

Shunda Ukosha Ibn Mihson Asadiy egnidagi namirani<sup>1</sup> ko‘tarib, o‘rnidan turdi va: “Ey Allohning rosuli, haqqimga duo qiling, meni ham o‘shalardan qilsin”, dedi. U zot: **“Allohim, uni o‘shalardan qilgin!”** dedilar<sup>2</sup>.

### **3) Azobga haqli bo‘lganlardan azobni yengillatish borasidagi shafolat**

Amakilari Abu Tolibga qilgan shafotlari shular jumlasidan.

Abbos Ibn Abdulmuttalib roziyallohu anhu Nabiy sollallohu alayhi vasallamga: “Amakingizga nima foyda yetkazdingiz? Axir u sizni ehtiyotlar, sizni deb o‘zgalarga g‘azab qilar edi”, dedi. U zot: “U do‘zaxning eng sayoz joyida. Men bo‘lmaganimda uning qa‘rida bo‘lar edi”, dedilar<sup>3</sup>.

U zot sollallohu alayhi vasallam amakilari Abu Tolib haqida shunday dedilar: “Shoyad, qiyomat kuni unga shafotim manfaat berib, do‘zaxning eng sayoz joyida – to‘pig‘iga yetib bundan miyasi qaynaydigan joyida - qilinsa”<sup>4</sup>.

<sup>1</sup> Namira – jundan qilingan, oq-qora yo‘lli, popuk hoshiyali ustki kiyim.

<sup>2</sup> Buxoriy, 5811. Muslim, 216.

<sup>3</sup> Buxoriy, 3883. Muslim, 209.

<sup>4</sup> Buxoriy, 3885. Muslim, 210.





## U zotning ummati eng yaxshi ummatdir

Alloh u zot sollallohu alayhi vasallamga bergan xususiyatlaridan yana biri, u zotning ummatini insonlarga chiqarilgan eng yaxshi ummat qilib berganligidir<sup>1</sup>.

Alloh taolo aytadi: “U sizlarni tanlab oldi. Va sizga bu dinda hech tanglik qilmadi”<sup>2</sup>.

Yana bir oyatda: “Siz odamlar uchun chiqarilgan eng yaxshi ummat bo`ldingiz”<sup>3</sup>.

Nabiy sollallohu alayhi vasallam ushbu oyat tafsirida shunday deydilar: “Sizlar bilan yetmish ummat to‘liq bo‘ladi. Ularning eng yaxshisi va Allohga eng karamlisi sizlarsiz<sup>4</sup>.

Yana u zot sollallohu alayhi vasallam aytadilar: “Allohning payg‘ambarlariga berilmagan to‘rt narsa menga berildi:

- Yer kalitlari berildi.
- Ahmad deb nomlandim
- Tuproq menga poklovchi qilib berildi
- Ummatim eng yaxshi ummat qilindi”<sup>5</sup>.

Yer kalitlaridan murod yer xazinalaridir. Bugungi kunda musulmon yerlaridan chiqayotgan boyliklarni ko‘rib turibmiz.

<sup>1</sup> Suyutiy. “Xosoisul kubro”, 2/361.

<sup>2</sup> Haj surasi, 78-oyat.

<sup>3</sup> Oli Imron surasi, 110-oyat.

<sup>4</sup> Termiziy, 3001.

<sup>5</sup> Ahmad, 1361.



## U zotga va ummatiga gʻanimatning halolligi

Alloh u zot sollallohu alayhi vasallamga va ummatlariga kofir qavmlarga gʻolib boʻlganlarida oladigan oʻljalarini halol qilib berishligi bilan boshqa paygʻambar va ummatlaridan xosladi<sup>1</sup>.

U zot sollallohu alayhi vasallam aytadilar: “Mendan avvalgilarga berilmagan besh narsa menga berildi:

- Bir oylik masofadan dushmanga qoʻrquv berildi.
- Yer yuzi poklovchi va masjid qilib berildi. Ummatimdan qaysi bir kishiga namoz vaqti yetsa (oʻsha yerda) oʻqiyversin.
- Gʻanima (oʻlja) halol qilindi. Mendan avval hech kimga halol boʻlmagandi.
- Shafoat berildi.
- Paygʻambarlar oʻz qavmigagina joʻnatilardi. Men esa, barcha insonlarga joʻnatildim”<sup>2</sup>.

U zot sollallohu alayhi vasallam aytadilar: “Sizlardan avval qora boshlilardan birortasiga oʻljalar halol boʻlmagan. Osmondan bir olov tushib uni yer edi”. Badr kuni musulmonlar oʻljalar ularga halol qilinmay turib tashlangan paytlari, Alloh ushbu oyatni nozil qildi: “Agar Allohning oldindan yozgani boʻlmaganida, sizga olgan narsalaringiz tufayli ulugʻ azob yetar edi”<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> Suyutiy. “Xosoisul kubro”, 2/351.

<sup>2</sup> Buxoriy, 335. Muslim, 521.

<sup>3</sup> Termiziy, 3058.



Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: "Rosululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: «Anbiyolardan biri gʻazotga chiqdi. Qavmiga: «Biror ayolni nikohiga olib, uning yoniga kirmoqchi bolgan-u, hali yoniga kirmagan kishi; uylar qurib, hali shiftini koʻtarmagan kishi; bir suruv qoʻy yoki boʻgʻoz tuyalar sotib olib, ularning tugʻishini kutib turgan kishi menga ergashmasin", dedi. Soʻng gʻazotga chiqdi. Shaharga asr namozi yoki shunga yaqin payt yaqinlashdi. Quyoshga: "Sen ham buyurilgansan, men ham buyurilganman. Allohim, uni biz uchun ushlab tur", dedi. Shunda (quyosh) ushlab turildi. Nihoyat, Alloh unga fath berdi. U oljalarni toʻpladi. Shu payt u -yaʻni olov - buni yegani keldi, lekin yemadi. Shunda u (nabiy): "Aniqki, orangizda oʻljaga xiyonat bor. Har bir qabiladan bir kishi menga bayʻat bersin", dedi. Bir kishining qoʻli uning qoʻliga yopishib qoldi: "Xiyonat sizlarda ekan. Qabilang menga bayʻat bersin", dedi. Shunda ikki yoki uch kishining qoʻli uning qoʻliga yopishib qoldi: "Xiyonat sizlarda ekan", dedi. Ular sigirning boshidek tilla olib kelib, qoʻyishdi. Soʻng olov kelib, uni yedi. Endi esa Alloh oʻljalarni bizga halol qildi. Bizning zaifligimiz, ojizligimizni koʻrib, uni bizga halol qildi»<sup>1</sup>.

Avvalgi paygʻambarlarning shariatida qoʻlga kiritilgan oʻljani olish halol bolmagan. Oʻlja bir joyga toʻplab qoʻyilar,

<sup>1</sup> Buxoriy, 3124. Muslim, 1747.



agar unga xiyonat aralashmagan bo'lsa, osmondan olov kelib, uni yer, aks holda yemas ekan.

### U zot va ummatiga yer yuzi masjid va poklovchi qilib berilgan

Alloh taolo u zot sollallohu alayhi vasallamga xoslab bergan ishlardan yana biri, u zotga va ummatlariga yer yuzining hammasini masjid – namoz o'qisa bo'ladigan joy qilib bergan. Va tuproqni poklovchi qilib bergan, ya'ni tayammumni joriy qilgan<sup>1</sup>. Kimga bir namoz vaqti yetsa, modomiki najosat bo'lmas ekan, har qanday joyda namoz o'qishligi mumkin bo'ladi. Bu narsa avvalgi ummatlarda bo'lmagan. Ular namoz uchun maxsus belgilangan joylarda namoz o'qishgan. Ibodatxona, cherkovlar shular jumlasidandir.

U zot sollallohu alayhi vasallam aytadilar: “Mendan avvalgilarga berilmagan besh narsa menga berildi:

- Bir oylik masofadan dushmanga qo'rquv berildi.
- Yer yuzi poklovchi va masjid qilib berildi. Ummatimdan qaysi bir kishiga namoz vaqti yetsa (o'sha yerda) o'qiyversin.
- G'anima (o'lja) halol qilindi. Mendan avval hech kimga halol bo'lmagandi.
- Shafolat berildi.

<sup>1</sup> Suyutiyy. “Xosoisul kubro”, 2/351.



- Paygʻambarlar oʻz qavmigagina joʻnatilardi. Men esa, barcha insonlarga joʻnatildim”<sup>1</sup>.

### U zotning ummati xato, unutish va majbur boʻlib qilingan ishdan soʻralmasligi

Alloh taolo Nabiyy sollallohu alayhi vasallam ummatlarini xato, unutish va majburan qilingan ishlarda soʻroqqa tutmasligi bilan xoslagan<sup>2</sup>. Kim biror ishni adashib, esdan chiqarib yoki majburan qilsa unga gunoh yoʻq.

Rosululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: “Albatta Alloh ummatimdan xato, unutish va majbur boʻlingan gunohlarni kechirdi”<sup>3</sup>.

### U zotning ummati ommaviy halok qilinmasligi

Alloh taolo Nabiyyimiz sollallohu alayhi vasallam ummatini ommaviy halok boʻlib ketmasligi bilan xoslab qoʻydi. Ular qiyomatga qoim boʻlgunicha yer yuzida qoladilar<sup>4</sup>.

Rosululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: “Albatta Alloh menga yerni jamlab berdi. Men uning mashriqu magʻriblarini koʻrdim. Yaqinda ummatimning mulki menga jamlab berilgan yerlargacha yetib boradi. Va menga qizil va oq xazinalar<sup>5</sup> berildi. Va men Robbimdan ummatimni ommaviy ocharchilik bilan halok qilib yubormasligini va musulmon

<sup>1</sup> Buxoriy, 335. Muslim, 521.

<sup>2</sup> Suyutiy. “Xosoisul kubro”, 2/363.

<sup>3</sup> Ibn Moja, 2043.

<sup>4</sup> Suyutiy. “Xosoisul kubro”, 2/369.

<sup>5</sup> Yaʼni oltin va kumush



jamoatining qonini halol sanaydigan, o‘zlaridan boshqa bir dushman ularga bosh bo‘lib qolmasligini so‘radim. Robbim dedi: “Ey Muhammad, agar Men bir hukm qilsam, u rad qilinmaydi. Albatta Men senga va ummatingga ommaviy ocharchilik bilan halok qilmasligimni, musulmon jamoatining qonini halol sanaydigan, o‘zlaridan boshqa bir dushman ularga bosh bo‘lib qolmasligini (kafolatini) beraman. Garchi ularga atroflaridagi dushmanlar yig‘ilib kelsa ham – yoki atrofidagilar orasidan dushmanlar yig‘ilib kelsa, dedi – (musulmonlarning) ba‘zilar ba‘zilarini halok qilmagunicha va ba‘zilar ba‘zilarini asir olmaganicha (dushmanlarni hukmron qilmayman)”<sup>1</sup>.

### U zotning ummati zalolat ustida jamlanmasligi

Alloh taolo Nabiyyimiz ummatini dinning kattayu kichik ishlarda zalolat ustida jamlanishdan saqlab turishi bilan boshqalardan xoslab qo‘ydi<sup>2</sup>. Shu sababli ummatning bir narsaga kelishib ijmo‘ qilishi hujjat sanaldi. Ixtiloflari esa rahmat sanaldi<sup>3</sup>.

Rosululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: “Alloh taolo ummatimni – yoki Muhammad ummatini dedilar – zalolat ustida jamlamaydi. Va Allohning qo‘li jamoat bilan birga”<sup>4</sup>.

<sup>1</sup> Muslim, 2889.

<sup>2</sup> “Munyatus sul fiy tafzilir rosul”, 34.

<sup>3</sup> Suyutiy. “Xosoisul kubro”, 2/369.

<sup>4</sup> Termiziy, 2167.



## U zotning ummati qiyomat kuni tahorat asaridan porlab kelishi

Alloh taolo Nabiyyimiz sollallohu alayhi vasallam ummatini boshqa ummatlardan xoslab qo‘ygan jihatlaridan yana biri, ular qiyomat kuni tahorat izlaridan peshona va qo‘l-oyoqlari porlagan holda kelishlaridir. Mana shu belgi bilan Nabi sollallohu alayhi vasallam ummatlarini qiyomat kuni tanib oladilar<sup>1</sup>.

Rosululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: “Mening ummatim qiyomat kuni tahoratning asaridan peshona va oyoq-qo‘llaridan oppoq nur taralib turgan hollarida chaqiriladi”<sup>2</sup>.

Yana aytadilarki: “Ummatim havzi kavsar oldida men tomon keladilar. Men bo‘lsam xuddi bir kishi boshqaning tuyasini o‘zining tuyasidan qaytarib turganidek, boshqa odamlarni undan (havzi kavsardan) qaytarib turaman.

Ular: “Ey Allohning rosuli, bizni (o‘shanda) taniysizmi?” deyishdi. U zot: “Ha, sizlarda boshqa biror kishida bo‘lmaydigan bir siymo (belgi) bo‘ladi. Sizlar men tomon tahoratning asaridan peshona va oyoq-qo‘llaridan oppoq nur taralib turgan holda kelasizlar”<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> Ibn Hajar. “Fathul boriy”, 11/449.

<sup>2</sup> Buxoriy, 136. Muslim, 246.

<sup>3</sup> Muslim, 247.



## U zotning ummati qiyomatda boshqalarga guvoh bo‘lishi

Alloh taolo Nabiyyimiz sollallohu alayhi vasallam ummatini boshqalardan xos tarzda afzal qilgan jihatlaridan yana biri, qiyomatda ular xuddi qozi oldidagi guvoh kabi bo‘lishlaridir. Alloh taolo bandalari orasida hukm chiqargan payt, ba‘zi ummatlar ularga da‘vat-risolat yetib kelganini inkor qilishadi. Ya‘ni, biz bularni bilmagandik, deyishadi. Shunda Alloh Nabiyyimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam ummatini keltiradi. Ular barcha insonlarga payg‘ambarlari haqni yetkazganiga guvohlik berishadi. Mana shu xususiyat u zot sollallohu alayhi vasallamdan boshqa payg‘ambarga berilmagan<sup>1</sup>.

Alloh taolo aytadi: **“Shuningdek, sizlarni odamlar ustidan guvoh bo‘lishingiz va Payg‘ambar sizlarning ustingizdan guvoh bo‘lishi uchun o‘rta millat qildik”<sup>2</sup>.**

Rosululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: “Bir payg‘ambar (qiyomat kuni) ikki kishi bilan birga keladi. Va yana bir payg‘ambar uch kishi bilan, bundan ko‘proq va bundan kamrog‘i bilan (kelishadi). Unga: “Qavmingga yetkazdingmi?” deyiladi. U: “Ha”, deydi. Shunda qavmi chaqiriladi va ularga: “U sizlarga yetkazdimi?” deyiladi. Ular: “Yo‘q”, deydilar. Unga: “Senga kim (yetkazganingga) guvohlik beradi?” deyiladi. U: “Muhammad va uning ummati”, deydi.

<sup>1</sup> “Munyatus sul fiy tafzilil rosul”, 34.

<sup>2</sup> Baqara surasi, 143-oyat.





Shunda Muhammad ummati chaqirilib: “Bu yetkazdimi?” deyiladi. Ular: “Ha”, deyishadi. “Buni qayerdan bildingiz?” deydi. Ular: “Nabiyyimiz bizga rosullar yetkazganligini xabar qilgan va biz u zotni tasdiqladik”, deyishadi. Alloh taoloning: **“Shuningdek, sizlarni odamlar ustidan guvoh bo`lishingiz va Payg`ambar sizlarning ustingizdan guvoh bo`lishi uchun o`rta millat qildik”**<sup>1</sup>, degan gapi ham shu sabablidir”<sup>2</sup>.

### **Sirotdan birinchi bo`lib u zot va ummatlari o`tadi**

Alloh taolo Nabiyyi sollallohu alayhi vasallamni xoslagan afzalliklaridan yana biri, u zot va ummati qiyomat kuni ko`prikdan birinchi bo`lib o`tishlaridir.

Rosululloh sollallohu alayhi vasallam aytadilar: “Jahannam uzra sirot-ko`prik qo`yiladi. Shunda men va ummatim undan birinchi bo`lib o`tadi”<sup>3</sup>.

Sirot bu, do`zax ustiga o`rnatilgan ko`prikdir. U soch tolasidanda ingichka, qilichdanda o`tkir<sup>4</sup>. Qiyomat kuni odamlar uning ustidan o`tishadi.

### **Jannatga birinchi u zot va ummatlari kiradi**

Alloh azza va jalla Nabiyyimiz sollallohu alayhi vasallamni xoslab qo`ygan afzalliklaridan yana biri, u zot va ummati jannatga eng birinchi bo`lib kirishlaridir.

<sup>1</sup> Baqara surasi, 143-oyat.

<sup>2</sup> Ibn Moja, 4284. Nasaiy, 10940. Ahmad, 11558.

<sup>3</sup> Buxoriy, 7437. Muslim, 182.

<sup>4</sup> Muslim, 183.



Rosululloh sollallohu alayhi vasallam aytadilar: “Biz (dunyoda) oxirgilarmiz, Qiyomat kuni peshqadamlarmiz. Va biz jannatga eng birinchi kiruvchilarmiz. Biroq ularga bizdan oldin kitob berilgan. Bizga esa ulardan keyin berilgan. Ular ixtilof qilishdi. Ular ixtilof qilib talashib tortishgan narsada esa, Alloh bizlarni haqqa hidoyat qildi. Ushbu kunlari ularga farz qilingan bo‘lib, ular u haqda ixtilof qilishdi. Alloh bizni unga hidoyat qildi – juma kuniga, dedi – . Bugun biznikidir. Erta yahudlarniki, indin esa nasorolarniki”<sup>1</sup>.

Buxoriy rivoyatida: “Odamlar esa bunda bizdan keyindalar: ertasiga yahudiylar, indiniga nasorolar”, deyдилar.

### **U zotning ummati jannat ahlining aksariyatidir**

Alloh azza va jalla Nabiyyimizni boshqalardan xoslab afzal qilganliklariga yana bir misol, jannat ahlining aksariyati u zotning ummatidan ekanligidir.

Rosululloh sollallohu alayhi vasallam bir payt sahobalariga: «Jannat ahlining to‘rtidan biri bo‘lishga rozi bo‘larmidingiz?» dedilar. "Ha", deyishdi. U zot: "Jannat ahlining uchdan biri bo‘lishga rozi bo‘lmaysizlarmi?" dedilar. Ular: "Albatta", deyishdi. U zot: "Muhammadning joni qo‘lida bo‘lgan Zotga qasamki, men jannat ahlining yarmi bo‘lasizlar, deb umid qilaman", dedilar<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Buxoriy, 876. Muslim, 855.

<sup>2</sup> Buxoriy, 6642. Muslim, 376.



Yana aytadilarki: “Jannat ahli bir yuz yigirma safdan iboratdir. Ularning saksontasi mana shu ummatdan bo‘ladi. Qolgan qirqtasi boshqa ummatlardan”<sup>1</sup>.

Mana shu hadis Muhammad alayhissalom ummati jannatiylarning uchdan ikki (2/3) qismini tashkil qilishiga dalildir. Nabiy sollallohu alayhi vasallam avvaliga ular jannatiylarning yarmi bo‘lishlari haqida aytadilar. Keyin Alloh taolo ko‘prog‘ini fazl qilib beradi va saflar haqidagi hadisni u zotga bildiradi. Shundan keyin u zot sollallohu alayhi vasallam ummatlariga buni yetkazadilar<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> Nasaiy, 2546. Ibn Moja, 4289. Ahmad, 22940.

<sup>2</sup> Navaviy. “Sahih Muslim sharhi”, 3/95-96.



## Mundarija

<b>Birinchi qism .....</b>	<b>3</b>
Bo‘ylari.....	3
Ranglari.....	3
A‘zolari .....	3
Boshlari.....	4
Sochlari.....	4
Oqargan sochlari .....	5
Yuzlari .....	5
Ko‘zlari.....	6
Og‘izlari .....	6
Soqollari.....	6
Yelkalari.....	7
Bilaklari .....	7
Ikki qo‘llari .....	7
Boldirlari .....	7
Qadamlari.....	7
Yurishlari .....	8
Bellari .....	8
Yuzlanishlari .....	8
Hidlari.....	8
Payg‘ambarlik muhri .....	9
<b>Ikkinchi qism.....</b>	<b>10</b>
Hayolari .....	10
So‘zlashlari.....	10
She‘r aytishlari.....	10
Kulishlari.....	12
Hazil qilishlari.....	12
Shijoatlari.....	14
Kiyimlari .....	14
Kiyimlarining rangi.....	15



Kiyim kiyayotib nima derdilar .....	16
Uzuklari .....	17
Oyoq kiyim va mahsilari .....	18
Qilichlari.....	18
Qanday o‘tirardilar?.....	18
Qanday ovqatlanardilar? .....	19
Taomlari .....	20
Mevalari.....	23
Taomlanishdan oldin va keyin nima derdilar?.....	24
Ichimliklari .....	25
Qanday ichardilar?.....	25
Ochliklari.....	26
Xushbo‘ylanishlari .....	27
Uyqulari: .....	28
Yotoqlari .....	30
Uyg‘onishlari .....	30
Kechasi qiyomga turishlari.....	31
Nafli namozlari.....	33
Uydagi nafli namozlari: .....	34
Sadaqa qilishlari .....	35
Ro‘zalari .....	36
Qiroatlari.....	37
Yig‘lashlari .....	38
Tavoze‘lari: .....	40
Odamlar bilan muomalalari.....	42
Hijoma qildirishlari .....	44
Ismlari .....	45
Umlari.....	46
Vafotlari.....	46
Vafot kunlari .....	46
U zot sollallohu alayhi vasallamni yuvish.....	50
Kafanlash .....	52
Janoza .....	52



Ko‘mish.....	52
Qoldirgan meroslari.....	53
Rosululloh sollallohu alayhi vasallamni tushda ko‘rish.....	54
<b>Uchinchi qism</b> .....	<b>55</b>
Payg‘ambarliklarining umumiy ekanlig.....	55
So‘nggi payg‘ambar ekanliklari.....	56
U zotni nabiy va rosul deb chaqirish:.....	57
Ismi bilan chaqirishning haromligi .....	59
Jamlovchi kalimalar berilgan ekanligi .....	59
Qo‘rquv bilan qo‘llab quvvatlanganliklari.....	60
Kitoblari saqlangandir .....	61
Qiyomat kuni shafolat berilgandir .....	62
U zotning ummati eng yaxshi ummatdir.....	68
U zotga va ummatiga g‘animatning halolligi.....	69
U zot va ummatiga yer yuzi masjid va poklovchi qilib berilgan.....	71
U zotning ummati xato, unutish va majbur bo‘lib qilingan ishdan so‘ralmasligi....	72
U zotning ummati ommaviy halok qilinmasligi.....	72
U zotning ummati zalolat ustida jamlanmasligi .....	73
U zotning ummati qiyomat kuni tahorat asaridan porlab kelishi .....	74
U zotning ummati qiyomatda boshqalarga guvoh bo‘lishi .....	75
Sirotdan birinchi bo‘lib u zot va ummatlari o‘tadi .....	76
Jannatga birinchi u zot va ummatlari kiradi .....	76
U zotning ummati jannat ahlining aksariyatidir.....	77
Mundarija.....	79

